

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS  
TA`LIM VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI**

***O`TAMOVA MOHINUR MUZAFFAR QIZI***

**“Milliy uslubdagi ko`zgularni naqqoshlikda bezash texnologiyasi ”**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar:**

**Ro`zmetov Q.Sh**

**Urganch-2017**

## MUNDARIJA

**Kirish**.....3-11

### **I-BOB. SAN'AT KOLLEJLARIDA XALQ AMALIY BEZAK SAN'ATI TURLARIDAN TO'GARAKLAR TASHKIL QILISH VA ULARNI O'QITISHNING METODIK ASOSLARI**

1.1-§. San'at kollejlarida xalq amaliy bezak san'ati turlarini o'rgatishning hozirgi ahvoli .....12-21

1.2-§. San'at kollejlarida xalq amaliy bezak san'ati turlarini to'garaklarda o'qitishni takomillashtirish.....22-26

1.3-§. Xalq amaliy bezak san'ati turlaridan to'garak mashg'ulotlarini tashkil qilishdan maqsad va uning asosiy vazifalari.....27-30

1.4-§. Xalq amaliy bezak san'ati turlaridan to'garak mashg'ulotlarining metodik ta'minotiga qo'yiladigan talablar.....31-35

1.5-§. Xalq amaliy bezak san'ati turlaridan to'garak mashg'ulotlarini tashkil qilish va o'rgatish metodikasi.....36-41

### **II-BOB. SOVG'A BUYUMLARI VA MILLIY USLUBDAGI KO'ZGULARNI NAQQOSHLIKDA BEZASH BOSQICHLARI**

2.1-§.Sovg'a buyumlarining turlari, ularning shakllari va ishlatilishi.....42-45

2.2-§. Milliy uslubdagi ko'zgularga qo'llanilgan naqsh turlari, ularning tuzilishi va nomlanishi.....46-49

2.3-§. Milliy uslubdagi ko'zgularga moslab naqsh kompozitsiyalarini tuzish bosqichlari va qonuniyatlari.....50-52

2.4-§. Milliy uslubdagi ko'zgularga naqsh kompozitsiyalariga rang tanlash, ranglash va pardoqlash texnologiyasi.....53-54

2.5-§. Bitiruv malakaviy ishining amaliy ish jarayoni.....55-57

Xulosa.....58-60

Adabiyotlar ro'yxati.....61

Ilova

## Kirish

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi.** Mustaqil malakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida keyingi o'n yilliklarda ulkan o'zgarishlar yuz berganligini yaqqol ko'rib turibmiz. Ayniqsa ta'lim islohotlarini amalga oshirish strategiyasi va taktikasi davlatimiz siyosatining ustivor yo'nalishi hisoblanadi. Ta'lim muassasini yangi ijtimoiy –iqtisodiy va kasbiy shart-sharoitda o'quvchilarga izchil bilim beruvchi hamda ularni amaliy mehnat faoliyatiga, kasbga, hayotga tayyorlovchi muhim davlat muassasidir. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimovning Vazirlar Mahkamasining 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy–iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisidagi "2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" ma`ruzasida mamlakatimizda fan va texnologiyalar modernizatsiyasi borasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar samaradorligini oshirish, respublika ijtimoiy hayotining har bir sohasi va jabhasini rivojlantirish hamda yoshlarni mamlakatimiz taraqqiyotini ta`minlashga keng jalb etish, ularning iqtidori, ilmiy salohiyati va shijoatidan unumli foydalanish, iqtidorli va qobiliyatli yoshlarni ilmiy tadqiqot ishlariga yo'naltirish, zamonaviy texnika va texnologiya, axborot – kommunikatsion madaniyatni puxta o'zlashtirgan, murakkabva keng ko'lamli vazifalarni hal etishga qodir bo'lgan bilimli, yetuk yosh mutaxassislarni tarbiyalashga ko'maklashish, yoshlar o'rtasida o'zaro ilmiy-ijodiy hamkorlik, muhitini, do'stlik aloqalarini rivojlantirish, o'zaro fikr –mulohaza va tajriba almashishlari uchun sharoit yaratib berish masalalariga katta urg'u berilgan.<sup>1</sup>

Davlatimizning hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy hayotida kasb tanlash va o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishni takomillashtirish muammosi muhim ahamiyatga egadir.

Birinchidan, kasb-hunarga yo'naltirish kasbiy maslahat va kasb tanlash tadbirlarining amaldagi tizimi sifatida yoshlarni va barcha mehnatga layoqatli aholini ijtimoiy va iqtisodiy himoyalashni ta'minlaydi. Inson o'zining qiziqishi, layoqati va iqtidoriga mos holda kasb tanlagan bo'lsa, uni muvaffaqiyat bilan

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Barkamol avlod –O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.

o'zlashtiradi va tezda ijobiy natijalarga erishadi.

Ikkinchidan, fuqarolarning ilmiy asoslangan va ongli kasb tanlashi o'z mehnatidan yuqori natijalar olishi uchun muayyan kasb, mutaxassislikka bo'lgan talablarni hisobga olgan holda iqtisodiyot sohalari bo'yicha mehnat resurslarini ratsional taqsimlashga imkoniyat yaratadi. Kasb-hunarga yo'naltirishning yakuniy natijalari davlatimiz iqtisodiyotining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi, ish beruvchilarning malakali raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan talablarini qondiradi, shaxsning keyingi mehnat faoliyati uchun ta'lim olishi va kasb egallashiga bo'lgan ehtiyoj- xohishini rag'batlantiradi.

Shunday qilib, mavjud ta'lim tizimida umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb – hunar ta'limi dasturlari orasida izchillikning yo'lga qo'yilmaganligi natijasida tayanch va o'rta hunarga yo'naltirish va mehnat faoliyati malakasi shakllanmagan. Yigitlar va qizlar o'zlarining layoqatlari, xohishlari va ijodiy mehnatga bo'lgan qobiliyatlariga mos keluvchi hayot yo'lini tanlab olishda jiddiy qiyinchiliklar sezadilar.

Kasb tanlash va yoshlarni kasbiy o'z o'rnini topish muammolarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, o'ylamasdan tanlagan kasb, shu kasbni egallashdagi muvaffaqiyatsizlik, shaxs va jamoatchilikka iqtisodiy va ma'naviy zarar keltiradi, natijada ta'lim muassasalari (kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, oliy o'quv yurtlari) bitiruvchilarining o'z kasbiy o'rnini topa olmasliklariga sabab bo'ladi.

Ana shunday muammolarni hal qilish maqsadida ushbu bitiruv malakaviy ishi yaratildi. Chunki hozirgi kunda yoshlarning xalq amaliy san'ati turlari hunarlarini egallashlarida jiddiy muammolarga ham duch kelinmoqda. Buning asosiy sabablari sifatida yoshlarga ana shu san'at sirlarini ta'lim muassasalarning kamligi, dars mashg'ulotlarini tashkil qilishdagi qiyinchiliklar, aniq dasturlarning ishlab chiqilmaganligi va o'quv qo'llanmalarining etishmasligi kabilarni alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim. Bor darsliklar ham qisqa hajmdagi materiallar bilan cheklanib qolmoqda. Bu darsliklarda amaliy va nazariy ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha materiallar deyarli yo'q, shu munosabat bilan darslik, mustaqil ish topshiriqlari va metodik qo'llanmalarni tayyorlash, ulardan foydalanish imkoniyatlarini zaruriyati

yuzaga keldi. Chunki hozirgi kundagi bor darslik va o'quv qo'llanmalarda o'zgarib borayotgan ijtimoiy pedagogik sharoit, ta'lim maqsadlari to'la e'tiborga olinmagan, o'quvchilarda ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga ham e'tibor qilinmagan. Bizningcha yuzaga kelgan muammoni o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari, san'at gimnaziyalari va litseylarining o'quv rejalariga xalq amaliy san'ati turlarini kurs sifatida, umumta'lim maktablarida esa to'garak yoki faqultativ mashg'ulotlari sifatida o'rganish yo'li bilan yanada jonlantirish yo'llarini izlab topishimiz zarur.

Tanlangan bitiruv malakaviy ishimiz mavzusining dolzarbligi umumta'lim maktablari va o'rta maxsus san'at kollejlari xalq amaliy san'ati turlaridan naqqoshlik san'ati mashg'ulotlarida shu san'at turiga bo'lgan qiziqishni yanada oshirish, naqqoshlik haqidagi nazariy va amaliy bilimlarni rivojlantirish, yangi-yangi qo'shimcha ma'lumotlar bilan tanishtirish, ularning ko'nikma va malakasini shakllantirishga, rivojlantirishga bo'lgan zaruriyat bilan belgilanadi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Ushbu tadqiqot muammolari bilan bog'liq ilmiy izlanishlar quyidagi yo'nalishlarda olib borilgan:

- O'quvchilarga san'at turlarini, xususan xalq amaliy bezak san'ati turlarini o'rgatish masalalari bilan O'zbekistonda S. Abdullayev, S. Bulatov, A.Vasiqov, Q.Qosimov va b. shug'ullanishgan;

- O'zbekiston milliy maktablari o'quvchilarini xalq amaliy bezak san'ati va tasviriy san'at vositalari yordamida badiiy va estetik tarbiyalash masalalari bilan S.F.Abdullayev, A.A.Omonullayev, I.Ahmedov, S.S.Bulatov, J.A.Darmenov, Q.Qosimov, R.Hasanov va b.;

San'at kollejlari xalq amaliy bezak san'ati turlaridan to'garaklarni tashkil qilish bo'yicha mavjud darslik, o'quv va metodik qo'llanmalar hamda shu yo'nalishdagi boshqa adabiyotlarning tahlilidan shu narsa ma'lum bo'ldiki, hozirgi vaqtgacha:

- San'at kollejlari xalq amaliy bezak san'ati turlarini o'rganish muammolari ko'rib chiqilmagan;

- Xalq amaliy bezak san'ati turlari to'garagi mashg'ulotlarini samarali tashkil qilish yo'llari, vositalari va metodlari zarur darajada ishlab chiqilmagan;

- San’at kollejlarda xalq amaliy bezak san’ati turlari to‘garak mashg‘ulotlari uchun hozirgacha o‘quv-metodik kompleks yaratilmagan.

Bu ahvol san’at kollejlarda xalq amaliy bezak san’ati turlaridan to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil qilishni qiyinlashtirib, unga salbiy ta’sir qiladi.

Ushbu muammoning echimini topish mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Yuqoridagi barcha fikr va mulohazalarni bir joyga jamlab bitiruv malakaviy ishning maqsadi va mazmunini belgilab oldik.

**Tadqiqotning maqsadi:** San’at kollejlarda xalq amaliy bezak san’ati nurlaridan biri naqqoshlikdan to‘garak mashg‘ulotlarilarida o‘rganish nazariyasi va metodikasini takomillashtirish yo‘li bilan ta’lim jarayoni sifati va samaradorligini orttirish.

**Tadqiqot vazifalari:**

--- xalq amaliy bezak san’ati turlarini san’at kollejlarda hozirgi kunda o‘qitilishini tahlil qilish, talabalarni xalq amaliy bezak san’atining keng tarqalgan turlaridan biri –naqqoshlik san’ati usullarini o‘zlashtirishlarini o‘ziga xos tomonlarini o‘rganish.

--- xalq amaliy bezak san’ati turlari fanidan o‘quvchilar o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan nazariy materiallar va bajarishi zarur bo‘lgan amaliy ishlar turlarini tanlash mezonlarini ishlab chiqish.

-- xalq amaliy san’at turlariga taaluqli bo‘lgan yangi ma’lumotlar to‘plash;

-- xalq amaliy san’at turlarida qo‘llaniladigan atamalarni yig‘ish;

-- xalq amaliy san’at turlarining tarixiy rivoji va maktablari, namoyondalari haqidagi bilimlarga ega bo‘lish;

-- xalq amaliy bezak san’ati turlarida naqsh turlarining qo‘llanilishini o‘zlashtirilish;

-- xalq amaliy san’at turlarida qo‘llaniladigan naqsh kompozitsiyalarini tuzish, ranglash va pardozlash texnologiyasini puxta egallash;

-- buyumlarga naqsh kompozitsiyasini ishlashga tayyorlashni o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishish;

- naqsh kompozitsiyasi ishlash bosqichlarini mukammal egallash;
- yangi uslubdagi naqsh kompozitsiyalarini yaratishga erishish;
- shu yoʻnalishda oʻrta maxsus kasb-hunar kollejlarida naqqoshlik toʻgarag mashgʻulotlarini tashkil qilishni metodikasini takomillashtirish;
- toʻgarak mashgʻulotlari jarayonida oʻquvchilar ijodiy faoliyatini yanada rivojlantirish;
- Sanʼat kolleji talabalarining xalq amaliy sanʼat turlariga boʻlgan muhabbatini uygʻotish;
- Sanʼat kolleji talabalarining nazariy va malakaviy bilimlarini mustaxkamlash;
- Sanʼat kollejlarida xalq amaliy sanʼat turlari toʻgarag mashgʻulotlarini tashkil qilish uchun dasturlar va oʻquv-uslubiy qoʻllanmalar ishlab chiqish;
- naqqoshlik sanʼatining boshqa sanʼat turlari bilan oʻzaro aloqasini aniqlash va hakoza kiradi.

**Tadqiqot obʼekti:** Sanʼat kollejlaridagi tasviriy sanʼat taʼlim yoʻnalishi uchun tashkil qilingan toʻgarak mashgʻulotlaridagi oʻquv-tarbiyaviy jarayon.

**Tadqiqot predmeti:** Sanʼat kollejlarida olib borilayotgan taʼlim jarayonida xalq amaliy bezak sanʼati turlaridan toʻgarak mashgʻulotlari tashkil qilish orqali oʻrganish bilan talabalarning badiiy-nazariy va metodik tayyorgarligi samaradorligini oshirish.

**Tadqiqotning tajriba-sinov ishlari.** Tadqiqot ishining asosiy gʻoyalari va xalq amaliy bezak sanʼati turlaridan toʻgarak mashgʻulotlari tashkil qilishni takomillashtirish bilan bogʻliq tajriba-sinov oʻqishlari sanʼat kollejlarida oʻtkaziladi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

1. Sanʼat kollejlarida xalq amaliy bezak sanʼati turlari toʻgaragi mashgʻulotlarini tashkil qilishning ilmiy-metodik asoslari Respublikamizda yana bir marotaba oʻrganilib, taʼlim jarayoniga tadbiiq qilish koʻzda tutilgan.

2. Sanʼat kollejlarida oʻquvchilarni xalq amaliy bezak sanʼati turlari boʻyicha egallashi zarur boʻlgan koʻnikma va malakalarini hisobga olgan holda xalq amaliy bezak sanʼati turlaridan toʻgarag mashgʻulotlari tashkil qilishning yangilangan, samarali mazmuni va metodikasi yaratiladi.

3. Xalq amaliy bezak san'ati turlaridan to'garak mashg'ulotlarining mazmuni takomillashtirilib, shu fan bo'yicha marotaba o'quv-metodik tavsiyanomalar yaratiladi.

4. Xalq amaliy bezak san'ati turlaridan taskil qilingan to'garak mashg'ulotlarining samaradorligini orttirish uchun mashg'ulotlarda kompyuter va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari yaratiladi.

**Tadqiqotning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.** San'at kollejlari taskil qilingan to'garak mashg'ulotlarida xalq amaliy bezak san'ati turlarini o'rgatishni shakllanishi; o'quvchilarning xalq amaliy bezak san'ati turlari bo'yicha egallashi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari aniqlanadi; xalq amaliy bezak san'ati turlaridan to'garak mashg'ulotlarining mazmuni o'rganib chiqilib, uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqiladi; xalq amaliy bezak san'ati turlaridan to'garak mashg'ulotlari bo'yicha amaldagi o'quv dasturini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi; o'quv-metodik kompleksni ta'lim jarayoniga kiritish metodikasi ishlab chiqilib, amaliyotda sinab ko'riladi.

Tadqiqotning muhim nazariy va amaliy g'oyalaridan Respublikamiz kasb-hunar kollejlari taskil qilingan xalq amaliy bezak san'ati turlaridan to'garak mashg'ulotlarida o'qitishda va metodik ta'minotini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishida foydalanilgan adabiyotlar tahlili:

Azimov.I. O'zbekiston naqshu nigorlari.

Mazkur kitobda naqsh san'atining shakllanish tarixi, uning me'morchilikda tutgan o'rni va unda naqqoshlik san'atining rivojlanish bosqichlari, hozirgi kuni haqidagi ma'lumotlar yoritilgan bo'lib, shu bilan birga O'zbekiston hududida joylashgan qadimiy shaharlardagi me'morchilik obidalariga ishlangan naqshu nigorlardan ajoyib namunalar berilgan.

Apuxtin O.K. Badiiy naqsh maktabi.

Ushbu o'quv qo'llanmasi maktab tasviriy san'at to'garaklariga va qadim zamonlardan beri O'zbekistonda keng qo'llanilib kelingan xalq san'atining ajoyib turlaridan biri bo'lgan naqqoshlik san'ati bilan qiziquvchilarga mo'ljallangan.



Qo‘llanmada naqqoshlarning ko‘p yillik tajribasini sistemalashtirishga harakat qilingan.

Mashhur naqqoshlar san‘atlari va ta‘lim-tarbiyaga oid tajribalari asos qilib olingan ushbu qo‘llanmada D. Hakimov, T. To‘xtaxo‘jayev tomonidan yaratilgan naqsh kompozitsiyalaridan foydalanilgan.

Shuningdek, ba‘zi mashqlarga namuna sifatida kiritilgan tasviriy materiallar naqqoshlar H. Qosimxo‘jayev, S. Norqo‘ziyev, Yo.Raufov va boshqalarning arxivlaridan olingan.

Qo‘llanmaning nazariy qismini ishlashda san‘atshunoslikka oid e‘lon qilingan materiallardan foydalanilgan.

Bulatov S.S. O‘zbek halq amaliy bezak san‘ati.

Mazkur o‘quv qo‘llanmasi maktab tasviriy san‘at to‘garaklariga va qadim zamonlardan beri O‘zbekistonda keng qo‘llanilib kelingan xalq san‘atining ajoyib turlaridan biri bo‘lgan xalq amaliy bezak san‘atining barcha turlariga qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan. Unda naqqoshlarning ko‘p yillik tajribasini sistemalashtirishga harakat qilingan.

Ushbu qo‘llanmada mashhur naqqosh va ustalar Usta Shirin Murodov, D. Hakimov, T. To‘xtaxo‘jayev, Tohirjon Usmonovlar tomonidan yaratilgan naqsh kompozitsiyalari va ta‘lim-tarbiyaga oid tajribalari asos qilib olingan.

Qo‘llanmaning nazariy qismini ishlashda san‘atshunoslikka oid e‘lon qilingan materiallardan ham keng foydalanilgan.

O‘quv qo‘llanma xalq ijodiyotining ko‘pgina havaskorlariga xalq amaliy bezak san‘atining sirlarini anglashga va boy tajribalari bilan tanishishga yordam beradi.

Bulatov S.S. Dadashev.I. Naqsh alifbosi .

Mazkur o‘quv-metodik qo‘llanmasi maktab tasviriy san‘at to‘garaklariga va naqqoshlik san‘atiga qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan. Unda zamonaviy naqqoshlik san‘atida qo‘llanilayotgan yangi uslubdagi naqsh elementlar, ularni chizish metodikasi va nazariyasi yoritilgan.

O‘quv-metodik qo‘llanma zamonaviy naqqoshlar tomonidan yaratilgan naqsh elementlari, naqsh kompozitsiyalari va ta‘lim-tarbiyaga oid tajribalari asosida

yaratilgan.

Mirzaaxmedov M. Materiallarga badiiy ishlov berish

Ushbu o'quv qo'llanmasi maktab tasviriy san'at to'garaklariga va qadim zamonlardan beri O'zbekistonda keng qo'llanilib kelingan xalq amaliy bezak san'atining ajoyib turlaridan naqqoshlik, ganchkorlik, naqqoshlik san'atlari bilan qiziquvchilarga mo'ljallangan.

Qo'llanmada ham naqqoshlarning ko'p yillik tajribasini sistemalashtirishga harakat qilingan.

Mashhur naqqoshlar san'atlari va ta'lim-tarbiyaga oid tajribalari asos qilib olingan ushbu qo'llanmada D. Hakimov, T. To'xtaxo'jayev tomonidan yaratilgan naqsh kompozitsiyalaridan foydalanilgan.

Shuningdek, ba'zi mashqlarga namuna sifatida kiritilgan tasviriy materiallar naqqoshlar H. Qosimxo'jayev, S. Norqo'ziyev, Yo.Raufov va boshqalarning arxivlaridan olingan.

Qo'llanmaning nazariy qismini ishlashda san'atshunoslikka oid e'lon qilingan materiallardan foydalanilgan.

Qosimov. Q. Naqqoshlik.

Mazkur o'quv-metodik qo'llanmasi maktab tasviriy san'at to'garaklariga va qadimdan O'zbekistonda keng qo'llanilib kelingan xalq san'atining ajoyib turlaridan biri bo'lgan naqqoshlik san'atiga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan. Unda mashhur naqqoshlarimizning ko'p yillik tajribasini sistemalashtirishga harakat qilingan.

Ushbu metodik-qo'llanmada mashhur naqqosh D. Hakimov, T. To'xtaxo'jayev, Tohirjon Usmonovlar tomonidan yaratilgan naqsh kompozitsiyalari va ta'lim-tarbiyaga oid tajribalari asos qilib olingan.

Qo'llanmaning nazariy qismini ishlashda san'atshunoslikka oid e'lon qilingan materiallardan ham keng foydalanilgan.

O'quv-qo'llanma xalq ijodiyotining ko'pgina havaskorlariga naqqoshlik san'atining sirlarini anglashga va boy tajribalari bilan tanishishga yordam beradi.

Shuningdek, ba'zi kiritilgan tasviriy materiallar naqqoshlar H. Qosimxo'jayev,

S. Norqo‘ziyev, Yo. Raufov va boshqalarning ijodiy ishlaridan olingan.

Egamov. H. Bo‘yoqlar bilan ishlash.

Mazkur qo‘llanmada tasviriy san’atda rangshunoslik, ranglarning turlari, ularning qo‘llanilish sohalari kabi materiallar keng yoritilgan.

Ushbu metodik qo‘llanmasi maktab tasviriy san’at to‘garaklariga va xalq san’atining ajoyib turlaridan biri bo‘lgan naqqoshlik san’atiga qiziquvchilar uchun ham mo‘ljallangan.

## **I-BOB. SAN'AT KOLLEJLARIDA XALQ AMALIY BEZAK SAN'ATI TURLARIDAN TO'GARAKLAR TASHKIL QILISH VA ULARNI O'QITISHNING METODIK ASOSLARI**

### **1.1-§. San'at kollejlarida xalq amaliy bezak san'ati turlarini o'rgatishning hozirgi ahvoli**

Respublikamizda ta'lim tarbiya jarayoni bilan bog'liq o'zgarishlar ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish, uni milliy ruh bilan sug'orish, samarali an'anaviy uslublarni saqlab qolgan holda yangilarini yaratish va amaliyotda loyihalash borasida olib bori-layotgan ishlar bilan bog'liq. Bu yo'nalishning qamrov sohasi kengayib, mazmuni takomillashib bormoqda, ya'ni u o'qitishning texnik vositalarshsh tanlash ta'limning butun jarayonini aniq reja asosida tashkil etishri ko'zda tutadi.

Jumladan, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturida" hozirga ta'lim tizimidagi kamchilik va muammolar to'g'risida shunday deyilgan: "Ta'lim tizimidagi mavjud umumiy o'rta ta'lim va kasb hunar dasturlari o'rtasida uzviylik va vorislikning yo'qligi sababli tayanch va o'rta maktab bitiruvchilarida kasbga yo'naltirilganlik va mehnat ko'nikmalari shakllanmay qolayapti. Natijada yigit va qizlar o'z qobiliyatlari, istaklari, mehnat va ijodiy moyilliklariga monand hayot yo'lini belgilab olishda jiddiy kiyinchiliklar sezmaydilar».

Shunday ekan, mazkur yo'nalish asosida ta'lim-tarbiya ishlarini malakalarini shakllantirishda jahon pedagogikasi yutuqlari bilan birga Markaziy osiyoda yashab, ijod etgan mutafakkirlarning qarashlari ham asos sifatida olinishi katta ahamiyatga ega.

Jamiyat taraqqiyotida, xuquqiy davlatni barpo etishda va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ko'rsatilgan ishlarni amalga oshirishda umumiy o'rta ta'lim maktablarining ahamiyati beqiyos.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida bilim olayotgan yoshlarni kasb hunarga yo'naltirishda bir qarcha muammolar mavjudligi yaqqol ko'rinmoqtsa: jumladan, kasb hunarga yo'naltiruvchi shart-sharoitlar yanada takomillangtirilmog'i lozim, ta'lim-tarbiya mazmunini o'zbek xalqining an'analari va qadriyatlarini asosida

shakllantirishning tamoyil va mezonlari to'liq ishlab chiqilmaganligi, zamon talabidagi dasturlarning mavjud emasligi yaqqol seziladi

Amalga oshirishda kasbga tayyorgarlik tizimini takomillashtirish ham muhim ahamiyatga egadir. Ushbu muammolar tadqiqotimizning asosiy yo'nalishini belgilaydi va dolzarbligini ko'rsatadi.

Yoshlar tarbiyasining asosiy bo'limlaridan biri ularni kasbga tayyorlash jarayonidan iboratdir. Yoshlarning mehnat va kasb hunar tayyorgarligi muammolarini tahlil qilishning turli sohalari bilan juda ko'p davlatlar va vatanimiz olimlari shugullanib kelmoqdalar.

Pedagog olimlardan S.S.Bulatov, N.A.Muslimov, O'.Q.Tolipov, N.P.Andiranov, V.P.Bespalko, Yu.K. Zasilyev va boshqalar tadqiqotlarida bu muhim muammoning turli qirralarini o'rganganlar.

Vatanimiz pedagogolimlaridan U.N.Nishonaliyev, E.T.Choriyev, N.Shodiyev, N.S.Sayidaxmedov, P.T.Magzumov, A.R.Xo'jaboyev, O.Xayitov, R.X.Jo'rayev, K.Mirsaidov, R.Mavlonova, J.Ramizov, K.Davletov, K.Mustafoev va boshqalar yoshlarni mehnat va kasb tayyorgarligi sohalari turli qirralarini o'z ilmiy tadqiqot ishlarida yoritganlar.

Ko'rsatilgan muammolarning nazariy tomonlari shu paytgacha to'liq ishlab chiqilmagan, lekin turli xalqlarning pedagogik qarashlarga doir muammolar S.R.Rajabov, M.G.Davletshin, A.Zunnunov, B.Qodirov, A.K.Munavvarov, I.Obidov, Z.Mirtureunov, O.M.Musurmonova kabi olimlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Asrimizning 80-90 yillarda tadqiq etilgan tadqiqotlarda yosh avlod tarbiyasi ochib berilib, mehnat, ta'lim tarbiya, urf odatlarni asosiy mavzu qilib olganlar va ma'lum ma'noda biz-ning tadqiqotimiz mavzusiga yaqin bo'lgan ishlardir. Mehnat va kasb ta'lim jarayonida yoshlarda milliy qadriyatlarni takomillashtirishning ya'ni, barkamol insonni shakllantirishning o'ziga xos shart sharoitlari mavjud.

Mehnat va kasb-hunar ta'limini amalga oshirish jarayonvda hozirgi zamon talablari o'z aksini topmog'i: milliy, ma'naviy, tarixiy etnik qadriyatlarimiz xususiyatlari ham ko'rsatilmog'i lozim.

- mehnat va kasb ta'limining mazmuni va shakllari, xalqimizning ma'naviy qadriyatlari, meroslari, an'anaviy negizi asosida qurilmog'i yoshlarga mehnat va kasbiy tayyorgarlik jarayonida ma'naviy meroslarni o'rganishni shakllantirishda ta'lim tarbiya muassasalarining oila va jamoatchilik, maxalla hamkorligining birligi saqlanishi;

- yoshlarning mehnat tayyorgarligini amalga oshiruvchi pedagoglar tarbiyachilar, murabbiylarning tayyorgarlik jarayoni bilan shu ishlar amalga oshiriladigan muassasalari, o'quv tarbiyaviy rejalari, dasturlarning uslub ta'minotining mazmunan bir biriga mos tushmasligi.

Ilmiy tahlillar o'sib kelayotgan avlodga badiiy xalq hunarmandchiligini ma'lum darajada o'rgatish asosan uch xil toifadagi ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotganligini aniqlash imkonini beradi. Xalq ta'limi vazirligi: umumiy o'rta ta'lim maktablarida (boshlang'ich sinflarda badiiy mehnat va tas-viriy san'at fani); maktabdan tashqari muassasalarda (amaliy-bezak san'ati fani); kasb-hunar ta'limi tizimlarida.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari (1-1V) boshlang'ich sinflarida amaliy-bezak (badiiy hunarmandchilik) san'atini o'qitishni amalga oshirish yuzasidan ilmiy-uslubiy adabiyotlar nihoyatda kamchilikni tashkil qiladi.

Mavjud ishlardan e'tiborga loyiqlari sifatida X.Egamovning «Ustasi o'zing», X.Egamov va Z.Bobomurodovlarning «Qog'oz bilan ishlash», M.Umarova va J.Jilonovalarning «Plastilin va loy ishi» kabilarni ko'rsatish mumkin. Mazkur ishlarda kichik maktab yoshidagi bolalar uchun tabiiy materiallar va qog'oz, plastilin va loyga ishlov berish va ulardan turli mashg'ulotlar yasash yuzasidan metodik tavsiyalar berilgan. Ko'rsatilgan metodik tavsiyalar muayyan qimmatga egaligi bois, ularning- ayrim qismini boshlang'ich bosqichdagi badiiy hunarmandchilik ta'limi mazmuni tarkibiga kiritish mumkin.

Shuningdek, R.Hasanov va X.Egamovlar tomonidan ishlab chiqilgan «Tasviriy san'at va badiiy mehnat» dasturi alohida ahamiyatga ega.

Dastur mazmunida bolalarni tasviriy san'atga o'rgatish yetakchi ahamiyat kasb etgan bo'lishiga qaramasdan, mualliflar O'zbekistonda birinchilardan bo'lib

uning mazmuniga ijodiy(badiiy) mehnatni kiritish orqali badiiy-konstruktiv va bezakli-san'at ta'limi uyg'unligini ta'minlashga muvaffaq bo'lishgan. Bizning nazarimizda, mazkur ish boshlang'ich sinflar-da o'quvchilarning keyingi badiiy-konstruktiv va bezakli-san'at ta'limi yo'nalishiga asoslangan maxsus dasturning yaratilishiga poydevor bo'lib xizmat qila oladi.

Shu bilan bir qatorda biz o'z e'tiborimizni quyidagi jihatlarga qaratdik:

1. Mualliflar «O'ymakorlik kompozitsiyasi»ni o'rgatishga («Kompozitsiya» bo'limida nazarda tutilgan «Haykaltaroshlikda kompozitsiya», «Rassomchilikda kompozitsiya» ta'limi) 1-sinfda-8; 2-sinfda-10; 3-4-sinflarda-12 soatdan ajratishgan.. Biz-ning nazarimizda, to'rt o'quv yili davomida bor-yo'g'i, 43 soat o'quv mashg'ulotining ajratilishi o'quvchilarda tegishli bilim, ko'nikma va malakalarning shakllantirishi va rivojlantirishi uchun etarli emas.

2. 1-4-sinf «Tasviriy san'at» bilan «Mehnat ta'limi» fanlarini integratsiyalash natijasida mualliflar tomonidan mehnat ta'limiga tegishli ayrim mavzularni batamom chiqarib yuborilgan. Boshqacha qilib aytganda, «Tasviriy san'at va badiiy mehnat» dasturida tasviriy san'atning rassomchilik, haykaltaroshlik, grafika va boshqa janrlariga alohida ahamiyat qaratilgan.

Shunday qilib, «Tasviriy san'at va badiiy mehnat» dasturi o'quvchilarni tasviriy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va o'stirishga yo'naltirishning ustunligi ta'minlanishi oqibatida o'quvchilarni boshlang'ich mehnat ta'limiga, hususan, badiiy-ijodiy mehnatga samarali tayyorlash ishlari muvofiqligiga putur etkazilgan.

Yuqoridagilarga asoslangan holda tavsiya qilamiz:

1. Xalq amaliy bezak san'atining badiiy hunarmandchilik ustalari tayyorlashdagi ahamiyatini hisobga olgan holda naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, kulolchilik, kandakorlik, zardo'zlik kabi boshqa san'at turlarini yanada kengaytirgan holda o'rganish.

2. «Xalq amaliy bezak san'ati» bo'limi predmetlarini integratsiyalash asosida kichik maktab o'quvchilarini badiiy hunarmandchilik yuzasidan maqsadli, tizimli ta'lim olishlarida boshlang'ich asos vazifasini o'taydigan alohida Xalq amaliy

bezak san'ati turlaridan to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish va uning dasturlarini ishlab chiqish.

Ta'limning 5-9-sinf o'quvchilari uchun o'quv rsja va dasturlarini o'rganib chiqib, shunda xulosaga keldikki, bugungi kunda mazkur sinflar uchun o'quv-uslubiy adabiyotlarning umuman yo'qligi tufayli bevosita ta'lim jarayoni (dars paytlari)da badiiy hunarmandchilik asoslariga o'rgatish nazarda tutilmaydi deb hisoblash mumkin.

O'z navbatida «Tasviriy san'at» va «Mehnat ta'limi» (5-9-sinf) o'quv predmetlari mazmunini o'rganish hamda tahlil qilishdan ko'zda tutilgan asosiy vazifalardan biri sifati-da oldindan maqsadli ta'limni tashkil qilish imkoniyatlarini belgilab beradigan ta'lim mazmuniga singdirilgan badiiy hunarmandchilik elementlarini aniqlash belgilandi.

Ma'lumki, 5-9-sinflarda «Tasviriy san'at» fanini o'qitish R.Hasanov tomonidan yaratilgan dastur asosida amalga oshiriladi. Huddi boshlang'ich sinflarda bo'lgani kabi ushbu fan atrof-muhit bilan suhbat, ixtirochilik san'ati to'g'risida suhbat, asli (natura) asosida chizish, kompozitsiya singari bir necha bo'limlarga bo'lingan.

Biz o'quvchilarning «Kompozitsiya» bo'limini o'rganish jarayonida bo'lg'usi badiiy hunarmand usta egallashi lozim bo'lgan muhim bo'lgan (badiiy-o'ymakorlik) bilim va malakalarni hisobga olgan holda asosiy e'tiborni shu bo'lim mazmunini o'rganishga qaratdik. «Kompozitsiya» bo'limi o'rganilishi uchun teng miqdorda o'quv soatlari ajratilgan uchta: rangtasvir kompozitsiyasi, haykaltaroshlik kompozitsiyasi, bezak ishlari kompozitsiyasi kabi bo'limlarni o'z ichiga oladi.

«Bezak ishlari kompozitsiyasi» bo'limini o'qitish jarayonida quyidagi o'quv toshpiriqlarini bajarish nazarda tutiladi: o'quvchilarni amaliy-bezak san'ati bilan tanishtirishni davom ettirish; o'quvchilarning o'ymakorlik kompozitsiyasi yaratish hamda milliy liboslarga andoza(eskiz)lar yaratish o'quvlarini o'stirish; xalq ertaklariga illyustratsiyalar tayyorlash.

«Bezak ishlari kompozitsiyasi» bo'limi mazmunini tahlil qilish asnosida yuqorida sanab o'tilgai o'quv topshiriqlarini bajarishda hamda o'quvchilaryaing



o‘ymakorlik kompozitsiyasi yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishni samarali tashkil qilish uchun ajratilgan 6 soat kamlik qiladi degan xulosaga keldik.

Shunday qilib, «Tasviriy san’at» predmeti bo‘yicha (1 sinfdan 7-sinfgacha) ta’lim jarayoni tahlillarini umumlashtirgan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, o‘quvchilarni badiiy hunarmandchilik o‘rgatish maqsadida ularning o‘ymakorlik kompozitsiyasi yaratish va bezak chizish yuzasidan egallaydigan bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi.

Milliy xalq amaliy bezak san’atining o‘zbek xalqi etakchi ana’anaviy san’at ekanligini hisobga olgan holda uning o‘qitishgashiga jiddiy ahamiyat berilishini hamda unga alohida o‘quv fani sifatida qaralishi zarur deb hisoblaymiz.

Ilmiy-taqqot maqsadlaridan kelib chiqqan holda asosiy e’tiborni "Naqqoshlik", "Yog‘och o‘ymakorligi" "Kulolchilik", "Zardo‘zlik" bo‘limlariga qaratdik.

Tahlillarga asoslangan holda aytish mumkinki, qog‘ozga, yog‘och buyumlariga ishlov berish texnologiyalarini o‘qitish mazmuni va izchilligi hunarmandchilik mehnati mazmuniga mos keladi, ya’ni o‘quvchilar mehnat ta’limi jarayonida qog‘oz va fanerlarga ishlov berish asosida hunarmand uchun zarur bo‘ladigan ish usullari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar hamda mazkur jarayon orqali o‘quvchilar zamonaviy turli moslamalar bilan ishlash malakalarni egallashga muvaffaq bo‘ladilar. Yog‘och buyumlariga ishlov berish yuzasidan o‘quvchilar egallagani bilim, ko‘nikma va malakalar kasb-hunar ta’limining turli sohalarini o‘rganishda o‘ziga xos poydevor vazifasini o‘taydi.

O‘z navbatida ta’lim jarayonida o‘quvchilar tamonidan tayyorlanadigan buyumlarning xalq badiiy hunarmandchiligi haftaligi namoyishining tashkil qilinmasligi o‘quvchilarning mashg‘ulotga bo‘lgan qiziqishlari, hunarmandchilik to‘g‘risidagi tutpunchalarining yetarli darajada rivojlanmasligiga olib keladi.

Biz xalq hunarmandchiligi ta’limini o‘rganish yuzasidan maktabdan tashqari muassasalar ishini ham o‘rgandik. Ta’limning bu shakli borasida qator uslubiy ishlar amalga oshirilgan bo‘lib; birinchi navbatda, S.Bulatov, M.O.Ashurova, O.Fayzullayev, K.Qosimovlarning tadqiqotlarini ta’kidlash joiz.

Mazkur ishlarda umumiy o'rta ta'lim maktablari hamda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida xalq amaliy-bezak san'ati o'qitishni tashkil qilish jarayonlari ifodalangan bo'lib, mualliflar tomonidan xalq amaliy-bezak san'atining ganch o'ymakorligi, yog'och o'ymakorligi va boshqa turlari yuzasidan o'quv rejalar, uslubiy qo'llanmalar, metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Bu ishlarda quyidagi o'quv topshiriqlari tavsiya qilingan:

- a) amaliy-bezak san'ati asarlarini o'rganish;
- v) ayrim naqsh va bezak elementlarini chizish;
- v) namunadan nusxa ko'chirish;
- g) o'quvchilarning mustaqil ishlari.

O'quv materiallari mazmunida mehnat ta'limi bilan amaliy-bezak san'ati yaxlitligining ta'minlanmaganligini alohida e'tirof etish zarur. Tematik rejaga muvofiq to'garak mashg'ulotlaridan ko'zda tutilgan asosiy maqsad o'quvchilarda maxsus bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir. Biz to'garakda o'quvchilarning amaliy-bezak san'atini egallash jarayoni bevosita kuzatish natijasida olib borilayotgan ishlarning qiyin kechayotganligi hamda kam samarali ekanligiga amin bo'ldik.

Tahlillar so'nggi yillarda kasb-hunar ta'limi tizimida badiiy hunarmandchilikka o'qitishda, yoshlarni milliy hunarlarga o'rgatishda xalq an'analarini tiklash borasida muayyan ishlarning amalga oshirilganligidan dalolat bermoqda. Soha yuzasidan qator me'yoriy hamda o'quv-uslubiy adabiyotlar yaratilmoqda.

Shu bilan bir qatorda diqqatimizni quyidagi masalalarga qaratdik:

1. O'quvchilar tomonidan xalq hunarmandchiligi asoslari fani yuzasidan o'tkazilayotgan amaliy mashg'ulotlar jarayonida tayyorlanayotgan mashg'ulotlarning aksariyati ma'lum bir badiiy qimmatga ega bo'lmagan kundalik ehtiyoj harakteridagi bezak-taqinchoqlardan iboratligi milliy hunarmandchilik san'atini o'rgatishning asl maqsad va mohiyatdan o'rgatganligi ko'rsatmoqda. O'quvchilarning badiiy hunarmandchilik tarixi, tarixiy taraqqiyoti va tub mohiyatini tasavvur qila olmasliklari oqibatida badiiy hunarmandchilik ishi ijodiy ahamiyat kasb etishdan yiroqlashish jarayonini kechirmoqda.

O'qituvchi amaliy mashg'ulotlarda mavjud tematik reja talabi asosida nisbatan tez tayyorlanadigan hamda etarlicha badiiy qimmatga ega bo'lmagan bezak mashg'ulotlari yasashga asosiy e'tiborni qaratishlari tufayli milliy hunarmandchilikni o'rgatishdan asli ko'zda tutilgan badiiy-estetik va ma'naviy qimmatga ega bo'lgan yaxlit va mukammal asarlar yaratish tamoyilining buzilishiga yo'l qo'yilmoqda.

2. O'quvchilar safiga iqtidorli bolalarni tanlab olish e'tirof etilgan bo'lishiga qaramasdan qabul rejasida hech bir imtihon nazarda tutilmagan. O'quvchilarning birinchi bosqich yakunida olingan sinov natijalari esa yuksak badiiy mahorat talab qiladigan hunar egalarini tanlash vazifasini o'tay olmaydi. Bizning nazarimizda, o'quvchilarni kasb-hunar kollejlari qabul qilishda ularda badiiy hunarmandchilikning istalgan bir turi yuzasidan muayyan amaliy ko'nikmalarning mavjudligini hisobga olish zarur.

3. Kasb-hunar kollejlari tematik rejalarini ishlab chiqish jarayonida xam fanlararo aloqa va uzviylik masalalariga jiddiy ahamiyat berilmagan.

Jumladan, 2-bosqichlar uchun «Kompozitsiya asoslari» fanini rejalashtirishda birinchi mavzu sifatida «Milliy mahsulotlar tayyorlash», «Binolarning ichki va tashqi tomonlarini milliy uslubda bezash» mavzulari tanlangan. Bizning nazarimizda, «Kompozitsiya asoslari» fanining dastlabki mavzularida o'quvchilarga buyumning eskizini olish, uning kompozitsiyasini tushuntirish va mazkur bilimlar asosida mashg'ulotlarni tayyorlash va bezash ishlarini amalga oshirishni o'rgatish mantiqan maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuqoridagilarga tayangan holda 1-bosqichda «Kompozitsiya asoslari» fanini o'qitishni joriy qilish zarur deb hisoblaymiz. Boisi, hunarmandchilik buyumlarini yaratish hamda ularga bezak berish texnik mehnat bo'lishi bilan bir qatorda asosan badiiy ijod mahsuli hamdir.

4. Mavzuli rejalarini tuzishda kasbiy yo'nalishdagi har bir fanning aniq ta'limiy vazifalari to'g'ri belgilanmaganligi sababli ularning mavzulari mazmunida o'rinsiz ortiqcha takrorlarga yo'l qo'yilgan. Shu nuqtai nazardai "Rasm va chizmachilik"

hamda "Kompozitsiya asoslari" fanlarining tematik rejasini ko'rib chiqamiz. Mazkur o'quv predmetlari parallel tarzda o'qitiladi.

1-bosqichda o'quvchilar (20soat) chizmachilikni, 2-3-bosqichlarda esa (40soat) rasmni o'rganishadi.

"Rasm va chizmachilik" fanidagi 12,13,14,15,16,17,22,23 mavzularni "Kompozitsiya asoslari"predmeti tarkibiga kiritish lozim, negaki o'quvchilarni namuna yoki tasavvurlari yordamida kompozitsiya yaratish ko'nikmalarini shakllantirish bevosita shu fanning vazifasiga yuklatidgan. Shuning uchun ham bu mavzularni boshqa predmetlar tarkibida o'qitishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bu, birinchidan, ortiqcha takrorlarning oldini olishga, ikkin-chidan, o'quvchilarning o'quv materiallarini yahlit va tizimli o'zlashtirishlarini ta'minlaydi hamda ishlab chiqarish bilan fan o'rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishiga olib keladi.

Shunday qilib, bizning nazarimizda, "Rasm va chizmachilik" fanining o'quv rejasida "Chizmachilik" fani sifatida qoldirish va 20 soatga qisqartirish, iqtisod qilingan 40 soatni "Kompozitsiya asoslari" fanining tarkibiga qo'shib berish zarur.

5. Mualliflar tomonidan ta'lim muddatlarini belgilashda xalq amaliy bezak sa'natining o'ziga xos xususiyatlari: yuqori badiiylik, murakkablik va o'ziga xoslik jihatlari yetarli darajada hisobga olinmagan. Kasb-hunar kollejlari doirasida-uch yil mobaynida yuqori malakali badiiy-xunarmandchilik ustalari etishtirishni samarali amalga oshirish uchun zarur ilmiy tavsiyalar etarli emas.

Biz aytmoqchimizki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida badiiy hunarmandchilik ta'limiga o'rgatishning fundamental asoslarini yaratmasdan turib, faqat kasb-hunar ta'limi muassasalariga tayangan holda mazkur masalani xal qilish kam samara beradi va muayyan qinchiliklarni tug'diradi. O'quvchilarda ijodiy-badiiy ko'nikmalarni shakllantirishni va rivojlantirishni izchil asosda quyi sinflardan boshlash orqaligana kasb-hunar va mehnat ta'limi uzviyligiga erishish mumkin.

Tahlillar turli o'quv muassasalari ta'limi mazmunida yoshlarni xalq hunarmandchiligiga o'rgatishning yaxlit tizimi shakllanmaganligini ko'rsatmoqda. Xalq badiiy hunarmandchiligi ta'limida muayyan bir o'quv muassasasi (boshlashich, o'rta va yuqori sinf) hamda turli o'quv muassasalari (maktablar,

maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, KHT tizimida) o'zaro bogliqlik, uzviylik yetarli darajada ta'minlanmagan. Shuningdek, bularda ta'limning muhim komponenti hisoblanadigan hunarmandchilik ta'limi an'analari; izchilik, tizimlilik, o'zaro aloqa aniq maqsadga yo'naltirilganlik borasida uzulishlar mavjud.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, turli ta'lim muassasalarida o'rgatiladigan xalq amadiy bezak san'ati turlarini fan sifatida o'quv rejasi, dasturi, ilmiy-uslubiy adabiyotlari hamda mashg'ulotlar tahlili mazkur ta'lim yo'nalishiniig hozirgi holatiga oydinlik kiritish va o'quvchilarga xalq amadiy bezak san'ati turlaridan ta'lim berish yuzasidan samarali yangi maxsus o'quv reja va dasturlarni yaratish imkonini beradi.

## **1.2-§. San`at kollejlarda xalq amaliy bezak san`ati turlarini to`garaklarda o`qitishni takomillashtirish**

Pedagogikada xalq amaliy san`ati ko`p qirrali san`at turlari sifatida qaralib, uning vazifalaridan biri – tarbiya hisoblanadi. Xalq amaliy san`atining tarbiyaviy imkoniyatlari juda katta bo`lsa ham, ulardan hozirgacha to`liq foydalanmay kelinmoqda.

San`at turlarining o`zagi hisoblanadigan xalq amaliy san`ati badiiy did, asosiy estetik mezonlar, yoshlarni san`atga, tabiatga va atrof-muhitga nisbatan estetik munosabatini shakllanishida muhim o`rin tutadi.

O`zbek xalqining tarixiy shakllangan milliy va diniy bayramlari, kishilar xayoti va turmush bilan bog`liq turli marosimlar, xalqning tarixiy rivojlanishi bosqichlari bilan bog`liq madaniy meroslarning namunalari, milliy o`zlikning tarixiy shakllanishidagi o`ziga xosliklar xalq amaliy san`atida o`ziga xos shaklda aks etgan. Shu o`rinda kollej o`quvchilarini xalq amaliy san`atiga o`rgatishda uni faqat estetik jihatlariga asosiy e`tibor qaratish bilan birga uning ko`p qirralari tarbiyaviy jihatlariga alohida e`tibor qaratish zarur. Chunki xalq amaliy san`atining amaliy, ramziy va nafosat jihatlari birligida shu san`at asarlarining badiiy o`ziga xosliklar namoyon bo`ladi.

Xalq amaliy san`ati namunalarida obrazlarning shartlilik, bir xilda takrorlanadigan elementlarining keng qo`llanilishi, rang-baranglilik, turli o`ziga xos bezaklarning keng qo`llanilishi uni ijodiyotning bir ko`rinishi sifatida ma`lum jihatlar bilan bolalar ijodiyotini eslatadi. Lekin bolalar ijodkorligidan farqli ravishda xalq amaliy san`atidagi bu jihatlar tasodifiy bo`lmasdan asrlar davomida saqalanib kelgan an`analar hisoblanadi. Shuning uchun KHKlari o`quvchilariga avvalambor uy-ro`zg`or buyumlarining shakllaridagi milliylik va mukammallik, milliy naqshlardagi ramziy ma`nolar, ular kompozitsion yechimlarining mukammalligi kabi sifatlarni tushuntirish zarur deb hisoblaymiz.

Xalq amaliy san`atining barcha turlari katta tarbiyaviy imkoniyatlarga ega. U o`zida ulkan ma`naviy kuch, estetik va ahloqiy (ruhiy) ideal, go`zallik g`oyalarining hamda ezgulik va adolatning tantanalarini aks ettiradi. Xalq amaliy san`ati milliy

madaniyatning tarkibiy qismi sifatida kollej o'quvchilarini shu madaniyatni egallashlariga ko'maklashadi.

O'zbekistonda shakllangan xalq amaliy san'ati maktablarining o'ziga xos xususiyatlari ko'pincha shu hududlardagi xalq ijodiyotining mahalliy an'analari bilan bog'liq. Mahalliy an'analarning yo'qotilishi badiiy madaniyatning o'ziga xosligini tekislab bir xillikka olib keladi. Mahalliy rang-barangliklarning yo'qotilishi o'zbek umummilliy madaniyatining kambag'allashib, hozircha shakllangan xalq amaliy san'ati maktablaridagi (Xorazm, Buxoro, Shahrisabz, Farg'ona, ...) o'ziga xoslikning yo'qolishi va ulardagi uslublarning bir xilligiga olib keladi. Mahalliy hilma-xilliklar –koloritning yo'qolishi o'zbek umummilliy madaniyatidagi rang-baranglikning kambag'allashishiga sababchi bo'ladi. Shuning uchun ham mamlakatimizda so'ngi o'n yilliklarda xalq amaliy san'atining unitilayotgan mahalliy turlarini qayta tiklash va rivojlantirishga katta e'tibor qaratilyapti. Shu maqsadda mahalliy hunarmandlar har tomonlama qo'llab-quvvatlanib, rag'batlantirib kelinmoqda. Shular qatorida mamlakatimiz ta'lim tizimida va tadqiqotlarning izlanishlarida ham badiiy madaniyatning milliy manbalarini o'rganish va rivojlantirish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Ta'lim tizimida milliy madaniyat va amaliy san'at turlarini o'rganishni tashkil qilishda o'quvchilarning dunyoqarashlari va ma'naviy qadriyatlarga munosabatini rivojlantirishga e'tibor qaratish bilan bir qatorda san'at turlarining amaliy tomonlariga, ularni bajarish uslublari o'rgatishga ham katta e'tibor qaratish zarur. Xalq amaliy san'ati rivojlanishining hamma bosqichlari va turlarida ham tabiatni tushunishga va u bilan uyg'unlikka intilishni ko'rish mumkin. O'quvchilarni xalq amaliy san'ati turlariga o'rgatishni tashkil qilishda aynan tabiat va uning inson bilan uyg'unligi nuqtai nazarini hisobga olgan holda ta'lim jarayoni tashkil kilinishi kerak.

O'quvchilarni xalq amaliy san'ati turlari bilan tanishtirish mazmuniga doir masalalarni hal qilishdan oldin amaliy san'atning o'zini moddiy madaniyatning favquloddagi bir ko'rinish sifatida tahlil qilib chiqish zarur bo'ladi. Xalq amaliy

san'ati birinchi navbatda xalqning turmush tarzida aks etgan dunyoqarashi, badiiy-estetik qarashlarini ifodalovchi vosita sifatida bizni qiziqtiradi.

Umuman hamma xalqlarning amaliy san'ati va madaniyatida ham xalqning amaliy ahamiyatga ega bo'lgan juda qadimgi davrlardan shakllangan dunyoqarashi aks etadi. O'zbek xalqining milliy madaniyati ko'p qirrali bo'lib, uni ilmiy o'rganish va ommalashtirish nisbatan yaqin davrlardan boshlangan deyishimiz mumkin. Shuning uchun ham bu sohada hali ko'p ishlar qilinishi zarur. Xalq amaliy san'atining formal – shaklga e'tibor beriladigan tarafi hozirgacha eng ko'p o'rganilgan. Lekin keyingi davrlarda ko'pchilik tadqiqotchilar xalq amaliy san'atining asosini u yoki bu ko'rinishdagi badiiy uslublar emas, xalqning turmush tarzi, hayotiy-madaniy qadriyatlari tashkil qilishini qayd qilmoqdalar.

Endilikda o'quvchilarga xalq amaliy san'atining eng keng tarqalgan turlari haqidagi ma'lumotlarni berishning o'zi yetarli bo'lmay qoldi. Bunday hunarmandchilik turlarining yakka o'zi milliy madaniyat ko'rinishi sifatida hisoblanishi qiyin. Ular ildizlarining ma'lum davr va hududdagi xalqning qadimiy madaniyati, takrorlanmas dunyoqarashini aks ettirishi bilan ham qadrlil hisoblanadi.

Uzoq davrlar davomida ma'lum hududda yashab, hunarmandchilikning biror turi bilan shug'ullanib kelgan ustalar o'zlarining mashg'ulotlarini shaxsiy ehtiyojlari uchun emas, boshqalarga sotish, bozorga chiqarish maqsadida tayyorlaganlar. Shu tartibda o'zbek xalq xalq amaliy bezak san'atining o'ziga xos shakli – hunarmandchilik dunyoga kelgan.

Xalq amaliy san'ati, jumladan hunarmandchilikning rivojlanishida xalqning turmush tarzi, urf-odatlarini, e'tiqodi, yashab turgan joydagi tabiiy va iqlim sharoitlari o'z ta'sirini o'tkazgan. Bugungi kunda hunarmandchilik mashg'ulotlarining ko'pchilik turlari – matolar, kiyim-kechaklar, idish-tovoqlar kabilar sanoat usulida ko'plab ishlab chiqarilayotgani bo'lsa ham, ulardagi milliylik xususiyatlari va shakllari asosan saqlanib kelinmoqda. Masalan, to'qimachilik mashg'ulotlari (atlas, adras, so'zana, ...), chinni buyumlar (choynak, piyola, lagan, ...), metall va kompozit materiallardan tayyorlanayotgan uy-ro'zg'or buyumlari kabilarda milliylik xususiyatlari yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Jumladan, Toshkent chinni



zavodi mashg`ulotlarining katta qismi chet ellarda sotishga chiqarishga mo`ljallangan. Keyingi yillarda paxta guli ramzi tushirilgan o`zbek milliy choynak va piyolalarining har xil variantdagi bezaklari yaratilib, bu mashg`ulotlar chet ellarda ham ommalashib ketdi. Bugunga kelib choy servizi, olti yoki o`n ikki kishilik ovqat servizi, choy damlab qo`yiladigan katta bo`lmagan choynaklar, lagan va dastali piyola (chashka) kabi zamonaviy mashg`ulotlarda ham milliy naqsh va bezaklarimiz keng ishlatilmoqda. Shunga o`xshash misollarni milliy matolar, milliy naqsh va miniatyura bilan bezatilgan turli sovg`a buyumlari kabi ko`plagan misollarni keltirish mumkin.

Bu mashg`ulotlarni sanoat usulida chiqarishi bilan bir qatorda xalq hunarmandlari tomonidan tayyorlangan amaliy san`at va hunarmandchilik mashg`ulotlariga bo`lgan talab ham ortib bormoqda. Misol sifatida O`zbekistondagi eng keng tarqalgan hunarmandchilik turlaridan biri kulolchilik mashg`ulotlarini qaraydigan bo`lsak, Xorazm, Farg`ona, Qashqadaryo, Toshkent kabi kulolchilik maktablarining mashg`ulotlari milliylik xususiyatlari saqlangan holda endilikda ularning eng yaxshilari hunarmandlar tomonidan san`at asarlari darajasida tayyorlanib, chet ellik sayyohlar va eldoshlarimiz tomonidan ko`plab xarid qilinmoqda. Xuddi shunga o`xshash ahvolni misgarlik, pichoqchilik, yog`och o`ymakorligi kabi juda ko`plagan milliy hunarmandchilik va amaliy san`at mashg`ulotlarida ham ko`rish mumkin. Bularning ta`sirini mamlakatimizdagi milliy hunarmandchilik maktablari rivojlangan hududlardagi yoshlar misolida ko`rishimiz mumkin. Bu hududlardagi yoshlar o`rtasida amaliy san`at va milliy hunarmandchilikka turlariga qiziqish katta.

Hozirgi davrda yoshlarni estetik tarbiyalash va badiiy ta`limga qo`yiladigan talablar ortib bormoqda. Masalan, tasviriy va amaliy san`at, shuningdek badiiy mehnat yo`nalishidagi mashg`ulotlarda ko`plagan ta`limiy va tarbiyaviy vazifalar amalga oshiriladi. Bu vazifalarning aksariyatini boshqa mashg`ulotlarda bajarishning imkoni bo`lmaydi. Milliy madaniyat, mahalliy badiiy hunarmandchilik va kasblar an`analarini o`rgatish orqali o`quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat, xalq ijodiyotining go`zalligi va falsafasini tushunish hissini tarbiyalash shunday

vazifalardan hisoblanadi. Bu vazifalarning asosiy qismini xalq amaliy bezak san'ati mashg'ulotlarida amalga oshirish zarur bo'ladi.

### **1.3-§. Xalq amaliy bezak san'ati turlaridan to'garak mashg'ulotlarini tashkil qilishdan maqsad va uning asosiy vazifalari.**

San`at kollejarida o'quvchilarga xalq amaliy bezak san'ati turlarini o'rgatish samaradorligi maqsad va vazifalarni to'g'ri belgilash, o'quv-tarbiyaviy ishlarning mazmuni, o'qitishning metod va uslublarini to'g'ri rejalashtirish va amalda qo'llashga bog'liq bo'ladi.

Mashg'ulotlarni ishlatilishi sohasi bo'yicha o'rganib chiqilsa, shu buyumning kundalik turmushdagi vazifasi bilan uning umumiy kompozitsion yechimi o'rtasidagi ma'lum bog'lanishni ko'rish mumkin. Mashg'ulotlarning har bir turiga uning ishlatilish sohasiga mos tarzda tashqi ko'rinishi, kompozitsion yechimning o'ziga xosligi tegishli bo'ladi.

Rassom biror mashg'ulotning kompozitsion echimi ustida ishga kirishayotganida ushbu mashg'ulotni turmushdagi o'rnini tasavvur qilishi va shu bilan bir vaqtda o'zining ijodiy g'oyasini amalga oshirish yo'lini aniq tasavvur qilish kerak.

Xalq amaliy bezak san'atida materialni his qilish qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Bunda bezatiladigan mashg'ulot bilan unga tushiriladigan naqshning uyg'unligini ta'minlash zarur bo'ladi. Fon va naqsh, material va naqsh birgalikda bir butunni tashkil qilishiga erishish kerak.

Xalq ustalarining eng yaxshi asarlarida yuqoridagi shartlar yuqori mahorat bilan bajarilib, mashg'ulot yaxlit uyg'unlikni tashkil qiladi. Biz buni hunarmandchilik va amaliy san'at mashg'ulotlarida naqqoshlikning qo'llanilishi misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. O'zbek naqqoshligining mahorat bilan qo'llanilishi, bunda tayyorlangan material va buyumning ishlatilish sohasining har tomonlama hisobga olinishi yaxlit uyg'unlikdagi san'at asari darajasidagi mashg'ulot yaratilishiga zamin yaratgan.

Xalq amaliy san'ati fanini o'qitish jarayonida har bir pedagogda dars jarayonini tashkil qilishning o'ziga xos bo'lgan metodi shakllanadi. Lekin bu metod asossiz va tasodifiy bo'lmasligi kerak. San`at kollejaridagi naqqoshlik san'ati mashg'ulotlari va darsdan tashqari to'garak mashg'ulotlarida ham o'quvchilarni milliy

hunarmandchilik va amaliy san'atga o'rgatishda shakllangan pedagogik metodlardan keng foydalanish zarur. Bunda o'zbek xalqida qadimdan shakllangan "ustoz-shogird" an'analari, amaliy san'atning respublikamiz hududlarida shakllangan maktablari an'analari va ulardagi o'ziga xoslik, hunarmandchilik va amaliy san'at mashg'ulotlari shakllaridagi milliylik va ularga tushirilgan tasvirlar va naqshlarning ramziy ma'nolarini o'quvchilarga o'rgatish pedagogning hamisha diqqat markazida turishi zarur. O'qituvchining ta'lim metodlarini tanlashi qo'yilgan maqsad va o'quvchilarning yoshlariga bog'liq bo'ladi.

Metodika pedagogning o'quvchilar bilan ishlashdagi o'ziga xos xususiyatlarni o'rganadi. Pedagogikaning maxsus bo'limi sifatida metodika o'quv jarayonini tashkil qilish tartibi va qonuniyatlarini o'rganadi. Amaliy-bezak san'atini o'qitish metodikasi fani pedagogika, psixologiya, estetika va san'atshunoslikning ilmiy ma'lumotlariga asoslanib, amaliy ish tajribalarini nazariy umumlashtiradi.

Metodika fan sifatida doimiy ravishda rivojlanib boradi. Ta'lim tizimining rivojlanishiga bog'liq ravishda o'quvchilarni xalq hunarmandchiligi va amaliy san'at turlariga o'rgatishning yangi, zamonaviy metod va uslublari taklif qilinadi. Ta'lim muassasalarida amaliy bezak mashg'ulotlarini tashkil qilish bo'yicha S.Bulatov, Q.Qosimov kabi mualliflar tomonidan ko'plagan zamonaviy metodik ishlanmalar tayyorlangan.

Badiiy ta'limning asosiy maqsadi – shaxsning ma'naviy madaniyatini shakllantirish, umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish, milliy madaniy merosga doir bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishdan iborat. Ushbu maqsadlar maxsus vositalar – o'rganilayotgan san'at turlariga mos bo'lgan ta'limning mazmuni, shakli va metodlari yordamida amalga oshiriladi. O'quvchilarni xalq amaliy san'ati va milliy hunarmandchilikka o'rgatish mazmuni tarkibiga voqelik va san'at asarlarini estetik idrok qilish, o'quvchilarning amaliy badiiy faoliyatlari ham kiradi.

O'quvchilarni xalq amaliy bezak san'atiga o'rgatish bo'yicha asosiy o'quv-tarbiyaviy vazifalar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalash, o'quvchilarda estetik tuyg'ularni va go'zallikni his qilish qobiliyatlarini rivojlantirish, san'atga qiziqish va uni sevishni tarbiyalash;

- o'quvchilarda xalq hunarmandchiligining amaliy ko'nikmalarini shakllantirish, milliy naqshlar va bezakli tasvirlar bajarishga o'rgatish;

- o'quvchilarda tasviry qobiliyatlar, badiiy did, milliy hunarmandchilik turlariga ijodiy munosabatini rivojlantirish;

- o'quvchilarni xalq amaliy bezak san'ati va milliy hunarmandchilikning mashhur namunalari bilan tanishtirish.

Shu o'rinda amaliy san'at bo'yicha yaratilgan o'quv adabiyotlarida chet el xalqlarida amaliy san'atning shakllanishi va ulardagi o'ziga xosliklar bo'yicha ma'lumotlar mualliflar nazaridan chetda qolib kelayotganini ta'kidlab o'tish zarur. Dunyo xalqlari amaliy san'ati va uning o'ziga xosliklari to'g'risidagi bilimlar o'quvchilarning amaliy san'at bo'yicha dunyoqarashi kengayishiga xizmat qiladi.

O'quvchilarni xalq amaliy bezak san'atiga o'rgatishdagi o'quv-tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun mashg'ulotlarda naturaga qarab naqsh bajarish, biror mavzu bo'yicha naqsh ishlash yoki mashg'ulotlarni milliy uslubda bezash, ganchkorlik, dizayn elementlarini o'z ichiga olgan applikatsiya, tasviriy san'at va tabiat go'zalliklari haqidagi suhbatlardan foydalanish mumkin.

Xalq hunarmandchiligi bo'yicha dastlabki mashg'ulotlardan boshlab o'quvchilarni o'zlariga topshirilgan vazifalar juda oddiy va unchalik qiziqarli bo'lmagan tayyorgarlik ishlaridan iborat bo'lsa ham ishning muhurligini his qilib, unga ma'suliyat bilan yondashishga o'rgatish kerak. Shundagina ularda ish jarayonida qo'lni to'g'ri tutish, to'g'ri o'tirish va asboblarni to'g'ri ushlash malakalari shakllanib boradi. "Ustoz-shogird" an'analarida ham avval asosiy malakalarni o'rganib ularni puxta o'zlashtirishdan bekorga boshlamaganlar. Hunarmandchilikda shakllangan an'anaviy malakalarni egallab, shu badiiy hunarmandchilikdagi o'ziga xos mezonlarni o'zlashtirgandagina mashg'ulotlar o'quvchilar uchun qiziqarli bo'ladi.

Amaliy-bezak san'ati mashg'ulotlarini tashkil qilishda dastlabki darslarda O'zbekistonda shakllangan maktablardagi amaliy-bezak san'ati, xususan naqshlar bilan tanishtirish, har bir maktabdagi bezak va naqshlarning o'ziga xos tomonlari va ularning ramziy ma'nolarini o'quvchilarga o'rgatish kerak. O'quvchilar bezak va naqshlarning qaysi maktab yo'nalishida bajarilganligini aniqlashni bilishlari maqsadga muvofiq.

Hozirgi davrga kelib respublikamiz ta'lim muassasalarida amaliy san'at mashg'ulotlarini shakllantirish bo'yicha ma'lum darajada o'quv-metodik ta'minot tizimi shakllangan. Endilikda bu sohadagi metodist olimlar va tadqiqotchilar oldida amaliy san'at mashg'ulotlari bo'yicha ta'lim sifati va samaradorligini orttiradigan ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalarga asoslangan o'quv adabiyotlarini yaratish vazifasi turibdi.

#### **1.4-§. Xalq amaliy bezak san'ati turlaridan to'garak mashg'ulotlarining metodik ta'minotiga qo'yiladigan talablar**

Hozirgi kunda san'at kollejarida naqqoshlik to'garak mashg'ulotlarini tashkil qilish barobarida, shu to'garak mashg'ulotlari bo'yicha namunaviy dasturi hamda 1991 yilda nashr qilingan o'quv qo'llanmaga asosan tashkil qilinmoqda. Shuningdek S.S. Bulatovning 1991 yilda Mehnat nashriyotida chop qilingan "O'zbek xalq amaliy bezak san'ati" o'quv qo'llanmasidan ham foydalanilmoqda. Ta'lim tizimidagi so'nggi yillardagi o'zgarishlar, ta'limga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish bilan bog'liq darslik va o'quv qo'llanmalar haligacha chop etilmagan.

Biroq naqqoshlik to'garak mashg'ulotlarining metodik ta'minotini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlardan to'liq foydalanilmoqda deb bo'lmaydi. Jumladan, ilg'or pedagogik texnologiyalarni badiiy bezak san'ati fani ta'lim jarayoniga olib kirish, o'qitishni zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti talablariga, ilmiy bilimlarning hozirgi umumiy darajasiga muvofiq takomillashtirish kabi keng qamrovli masalalar haligacha o'z echimini kutmoqda. Bu masalalarning amalga oshirilishi talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish bilan bog'liq. Shuning uchun ham badiiy bezak san'ati fani ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil, ijodiy fikrlashlari uchun qo'llaniladigan usullarni mos ravishda tanlash, kelgusida kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirishda o'z samarasini beradi.

Har qanday fanni o'qitishning metodik asosi – kontseptsiya, o'qitishning metodik tizimi va ular natijalarini baholash tarkibiy qismlaridan iborat. Metodik tizim tarkibiga ma'lumki, ushbu fanni o'qitishdan maqsad, mazmun, metod, fanni o'qitish vositalari va uni o'qitishning tashkiliy shakllari kiradi.

Hozirgi kunda didaktikaning an'anaviy, bazaviy tamoyillari (tizimlilik, ketma-ketlik, ko'rgazmalilik,...) bilan birgalikda badiiy bezak san'ati fanini o'qitish jarayoniga uni o'qitish metodik tizimi rivojlanishining bosh yo'nalishlari, undagi ustivor tamoyillar va asosiy sifatlarini aniqlashga qaratilgan yangi kontseptual yo'nalishlar ham kirib kelmoqda. Kontseptual yo'nalishlarni o'quv jarayoniga joriy qilish maqsadga muvofiqligi va aniq tavsiyalar A.D.Botvinnikov, N.N.Rostovtsev,

E.I. Shoroxov, S.E.Kuzin, V.I.Andryev, A.N.Leont'ev, I.Yalerner kabi ko'plab olimlarning psixologiya va pedagogika sohasidagi nazariy ishlanmalarida ko'rsatib berilgan.

Ushbu kontseptual' tamoyil va yo'nalishlarning qisqacha ta'rifini keltiramiz:

1. Ijtimoiy va insonparvarlik yo'nalishlarini faollashtirish:

- kundalik turmushda va hayotda, uyda va oilada foydaliligi;

- amaliy yo'nalganligi;

- Estetik yo'nalganligi va umummadaniy sifatlarga egaligi: tarixiy, san'atshunoslik, arxitektura va dizayn kabi sohalardan, hamda mashhur olimlarning hayoti va faoliyati bo'yicha qisqacha ma'lumotlar;

- ijobiy emotsional' ta'sirchanligi;

- fanga bo'lgan qiziqishni shikllantirish va rivojlantirish;

- talabalarning badiiy ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni kuchaytirish;

- shaxsiy va ijodiy qobiliyatlarni, mustaqillik va tashabbuskorlikni rivojlantirish va kuchaytirish;

2. Texnik va politexnik yo'nalganlik;

3. Umumpedagogik yo'nalganlik;

4. Maxsus kasbiy yo'nalganlik va mutaxassi modeliga chiqish;

5. Yangi axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish;

6. Fanlararo aloqalarning mavjudligi;

7. Mutaxassislik fanlari o'rtasida o'zaro bog'lovchi aloqalarning mavjudligi.

Yuqoridagi tamoyillarning ko'pchiligi o'zaro bog'liq bo'lib, ayrimlari boshqalaridan mantiqan kelib chiqadi, birlarining mavjudligi boshqalarining bo'lishini taqozo qiladi.

Naqqoshlik to'garak mashg'ulotlarida o'qitish metodikasi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarda yuqoridagi tamoyillarning ba'zilarini o'quv jarayoniga tadbiiq qilish zarurligi haqida to'xtalib o'tilgan. Lekin hozirgacha tasviriy va amaliy san'at o'qituvchilari tayyorlashda o'qitiladigan badiiy bezak san'ati fanida ularning metodik ta'minoti va umuman shu fanga qo'yiladigan kontseptual' talablar bir tizimga keltirilmagan. Kontseptual talablarni tuzib ularni asoslashdan maqsad,



yangi avlod darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratishda iloji boricha shu shartlarni bajarishga harakat qilishdan iborat. Yangi davlat ta'lim standartlarida naqqoshlik san'ati fani ta'lim tizimi va jamiyatdagi rivojlanishlarni e'tiborga olingan holda oldingilariga nisbatan mazmuni birmuncha kengaytirildi. Bunda tasviriy san'at va amaliy san'at o'qituvchilarining san'at kollejaridagi kasbiy faoliyatini ham e'tiborga olishga harakat qilingan. Shuning uchun biz tasviriy va amaliy san'at o'qituvchilari tayyorlashda amaliy bezak san'ati fani bo'yicha talabalar egallashlari zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar haqida to'xtalamiz:

Talabalarga naqqoshlik to'garak mashg'ulotlaridan bilim berishda birinchi navbatda ularning pedagoglik kasbini egallashlariga asosiy e'tibor qaratish kerak. Buning uchun:

Amaliy to'garak mashg'ulotlarda bajariladigan ishlarning mazmuni umum ta'lim maktablari va san'at kollejaridagi mos fanlar dasturi va fakultativ mashg'ulotlar mavzulariga mos bo'lishi kerak:

-talaba to'garak mashg'ulotlarda bajargan hamma amaliy ishlarni nazariy asoslab, og'zaki tushuntirish olishi kerak;

- talaba o'quv adabiyotlari, o'lchov va chizma asboblaridan foydalanish malakasini yuqori darajada egallagan bo'lishi kerak;

- talaba boshqa talabalar bajargan amaliy ishlarni tekshirish va baholay olishi kerak;

-talaba umum ta'lim maktablari yoki san'at kollejlari dasturiga asosan ko'rgazmali qo'llanmalar (o'quv plakatlari, kartochka-topshiriqlar,...) tayyorlash malakasini egallagan bo'lishi shart;

-talaba sinf doskasida bo'r bilan ishlash malakasiga ega bo'lishi kerak.

Shunday qilib tasviriy va amaliy san'at mutaxassisligini tayyorlashning asosiy o'ziga xos xususiyati bunda faqatgina yetarlicha nazariy bilimlarni egallagan mutaxassis emas, shuningdek "oltin qo'lli" malakali hunarmand ko'nikmalarini egallagan mutaxassis tayyorlanishi kerak.

Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun o'quv jarayonini tashkil qilish va har qanday fanni o'qitishda yagona o'quv-metodik majmua eng samarali vosita

hisoblanadi. Naqqoshlik to‘garak mashg‘ulotlari bo‘yicha yagona o‘quv-metodik majmua tarkibiga yaxlit tizim sifatida o‘quv dasturi 4 darslik va o‘quv qo‘llanmalari (ishlanmalar); ma’lumotnomalar; ko‘rgazmali qo‘llanmalar tizimlari (plakatlar, maket, model’, slayd, transparant va h.), talabalarning amaliy nazoratlari va mustaqil ishlari (to‘garak, olimpiada, tanlov kakbi chuqurlashtirilgan mashg‘ulotlarni ham hisobga olgan holda) uchun topshiriqlar to‘plamlari; naqqoshlik san’atidan pedagogik dastur vositalari va ularni qo‘llash bo‘yicha metodik qo‘llanmalari kiradi.

Ta’lim yo‘nalishi xususiyatini hisobga olgan holda ushbu o‘quv-metodik majmua boshqa mutaxassislar tayyorlashda foydalaniladigan majmualardan farq qilishi kerak. Shuni hisobga olib tasviriy va amaliy san’at mutaxassislarini tayyorlashda qo‘llaniladigan o‘quv-metodik majmualarga qo‘yiladigan kontseptual talablar bir tizimga keltirildi va ular quyidagilardan iborat:

(darslik, o‘quv qo‘llanma o‘qitishning texnik va ko‘rgazmali vositalari uchun)

1. Amaliy yo‘naltirilganlik;
2. Shaxsiy va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish;
3. Kasbiy yo‘nalganlik hamda tasviriy va amaliy san’at o‘qituvchisi mutaxassisi modeliga moslik;
4. Estetik yo‘nalganlik;
5. Umuminsoniy madaniyat elementlarining mavjudligi;
6. Umumpedagogik yo‘nalganlik;
7. Fanlararo aloqalarning mavjudligi. Maktab va KHK lariga chiqish;
8. Ijobiy hissiy ta’sirga egaligi; naqqoshlik san’atiga qiziqishni shakllantirish va rivojlantirishga ko‘maklashuvchi ta’sirlarning mavjudligi;
9. Yangi axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Xususi talablar (mustaqil ish topshiriqlari uchun)

1. Variantlarning har bir talaba uchun alohidaligi;
2. Talabada variant tanlash imkoniyati mavjudligi;
3. Modulli tuzilish;
4. Naqqoshlik san’ati fanida fanlararo aloqalarning mavjudligi.

Ushbu talablar o'quv jarayonini demokratizatsiyalashtirishga sharoit yaratib, talabaning o'qishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishga, uning qiziqish hamda tug'ma qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashadi. Ular talabaning individuallik, tashabbuskorlik, ijodkorlik xususiyatlarining ochilishiga va fanni ongli ravishda qiziqib o'rganishlariga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan talablardan mutaxassislik fanlarining metodik ta'minoti afzallik va kamchiliklarini aniqlashda bazaviy didaktik tamo-yillar bilan birgalikda foydalanish mumkin. Agar o'qitishning byuiror metodik vositasinng taklif qilingan talablar paketiga mos kelish matritsa-jadvalini to'ldirganda quyidagi xususiyatlar yaqqol ko'rinib qola-di: a) o'qitish vositasi metodik sifatinig bahosi; b) uni takomillashtirish yo'llari. Bundan tashqari ushbu talablardan foydalanib o'qitishning yangi vositalarini zamonaviy metodik darajada loyihalashtirish mumkin.

Taklif qilinayotgan talablar paketidan turli xil tanlovlarda, jumladan eng yaxshi o'quv qo'llanmalarini katta nusxalarda nashr qilish uchun hay'at a'zolari tomonidan baholash ishlarida foydalanishlari mumkin.

### **1.5-§. Xalq amaliy bezak san'ati turlaridan to'garak mashg'ulotlarini tashkil qilish va o'rgatish metodikasi**

San'at kollejlarda estetik tarbiya yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga hizmat qiladi.

Estetik tarbiya-tarbiyaning tarkibiy qismi, shaxsning shakllantirishning ta'sirchan vositalaridir. U yosh avlodning ma'naviy kamol topishiga yordam beradi, unda estetik ehtiyojlarni vujudga keltiradi, go'zallik ideallarini, badiiy didni, texnik o'quv va malakalarni shakllantiradi, bolaga atrofdagi voqelik go'zalliklarni to'liq idrok etishda ko'maklashadi. Yosh avlodning tarbiyasini yangi jamiyat qurish vazifalari bilan, davlat qurilishi, shuningdek, yangi maktablarni barpo etish vazifalari bilan chambarchas bog'liqdir. U yangi ijtimoiy tuzimda xalq ilgari hech qachon mumkin bo'lmagan go'zallik yarata olishini qayd qiladi, san'atning ammoga ta'sir ko'rsatishining qudratli vositasi, deb biladi.

Yuqorida aytilganidek, estetik tarbiyaning eng samarali vositasi san'at, uning har xil turlari va janrlaridir. Keyingi paytlarda halq san'atiga qiziqish kuchaygan bo'lsada, dekarativ-amaliy san'at ayniqsa halq ijodiyoti maktab praktikasida etarli darajada qo'llanmayotir. Har bir halqning an'anaviy san'ati madaniyat xazinasiga o'zining yaxshi yutuqlarini qo'shadi, kishilarning turmushini bezaydi, ularning estetik tarbiyasida hamkorlik qiladi. Shuning uchun xalq amaliy san'ati turlaridan biri naqqoshlik san'atini to'garak mashg'ulotlari orqali o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasb-hunar kollejlardagi badiiy naqqoshlik to'garak mashg'ulotlarini yo'lga keltirish ijodiyotning ana shu turning spetsifikasini hisobga olishni taqozo etadi va shunga ko'ra qator nazariy, hamda amaliy masalalarni ishlab chiqish zaruriyati tug'iladi. Bulardan eng muhimlari: ijodiy va texnologik jarayonlar mahsuli sifatidagi badiiy naqqoshlik asarlarining spetsifikasi, atrof-muhit bilan bog'liqligi; hozirgi kasb-hunar kollejlarning moddiy-tashkiliy imkoniyatlari, nuqtai nazardan san'atning turi sifatidagi naqqoshlik, to'garak binolarini tashkil etishga talablar qo'yiladi.

Naqsh san'atini o'rganishda eng zarur tadbir - O'zbekiston dekorativ-amaliy san'atidagi badiiy ijodiyotning ana shu turi rivojlanishining tarixiy bosqichlari va qonuniyatlari bilan tanishishdir. Hususan tarixiy materiallar o'quvchilarda badiiy naqqoshlik spetsifikasi, uning ko'rgazmali muhitni tashkil etishdagi, kishilar hayotidagi roli, ya'ni nazariy estetik asoslari haqida to'g'ri tasavvur hosil qilish imkonini beradi. O'quvchilarni o'zbek naqshining uslubiy xususiyatlari bilan tanishtiradi, bir yo'la o'zbek halqining juda boy madaniyati, ajoyib an'analari bilan ham tanishtirish lozim. Qadimdan saqlanib qolgan mehnat qurollariga, maishiy buyumlarga qarab uzoq o'tmishdagi kishilarning hayoti to'g'risida hulosasi chiqarish mumkin.

Hunarmand ustalar kishini lol qoldiradigan ajoyib naqsh kompozitsiyalarini yaratib, ana shu naqshlarda o'zlarining fikr va orzu-umidlarini ifodalab, ularni "odamga o'xshab gapirishga" majbur qilganlar. Qadimgi O'rta Osiyo madaniyati vakillari Ibn Sino, Beruniy, Nosir Xisrav, Sulton Ali Mashhadiy, Mirzo Ulug'bek, Nizomiy, Alisher Navoiy, Jomiy, Umar Hayyom va boshqalar qadimgi amaliy san'at sohiblarining asarlarini, mahoratlarini halq naqshlarini arxetektura konstruksiyasiga uyg'un bog'lay olganini madh etganlar.

Pedagogning vazifasi – o'quvchilarga xalq ustalarining asarlarini ko'ra olish va tushinishni, san'atkorning poetik fikrlarini ilok etishni o'rgatishdir. Buning uchun o'quvchi badiiy naqshning mohiyati nimalardan iboratligini, usta asarni qanday qilib yaratishini, bu san'atning qanaqa janrlari mavjudligi va hokozalarni bilish kerak. Dekorativ- amaliy san'atning bilishni pedagogik jihatdan muhimligi sababini quyidagilar bilan izohlash mumkin: san'atning ana shu turiga oid asarlar o'quvchilarda moddiy olamni idrok etishning estetik madaniyatini tarkib toptiradi, voqelikka estetik munosabatni shakllantiradi, ularga tasviriy san'atning boshqa turlariga xos badiiy ifoda vositalarini chuqurroq bilishda yordam beradi.

O'quvchilarda psixologik kayfiyatni vujudga keltirish naqsh to'garaklaridagi ta'lim -tarbiya ishlari samaradorligini oshirishning muhim omillaridir. Bunga tajribali naqqosh o'zining amaliy ishni namoyish etishi yoki o'tmishdagi ustalarning asarlarini tahlil qilish orqali erishishi mumkin. Masalan, "islami" yoki

“girih” naqshlarining qanday ishlanishini ko‘rsatish yaxshi omilddir. O‘quvchilar ustaning qo‘l harakatlari natijasida naqsh elementlarini qo‘shilib chizib borishga, ranglarni uyg‘unlashuvini ko‘rgan zahoti o‘z ustalarining ishini takrorlashga harakat qiladi.

Yuqorida aytilgandek, naqqoshlik to‘garagini tashkil etishda naqqoshlik san’atida yagona texnologiya mavjud emasligi bilan ham murakkablashadi. Har bir pedogog, rahbar yoki usta xalq naqshi elementlarini o‘zining o‘zbek naqshiga xos xususiyatlari to‘g‘risidagi ko‘pincha noaniq tasavvurga asoslanib tushintiradi.

Hozirgi estetik tarbiya nazariysi va praktikasidagi kollej yoshidagi o‘smirlarda ranglarni estetik xis qilishning rivojlanishini o‘rganishga alohida e’tibor beriladi. Bu masala o‘quvchilarga badiiy ta’lim berish va ularni kamol toptirishning mazmuni hamda metodlarini yanada takomillashtirishda muhim bo‘lim hisoblanadi. Ko‘p yillik tajriba o‘quvchilar ranglar nomini yaxshi o‘zlashtirishlarni, rangni faqat asosiy xarakteristikasi bo‘yicha ham farqlashni tez o‘rganishlarni, kolorit va ranglar munosabatining ayrim masalalarini yaxshi tushintirishlarini ko‘rsatadi.

Naqshda qandaydir element o‘zining ma’naviy va kompozitsion ahamiyati bilan alohida o‘rin tutsa, uning rangi maxsus ajralib turishi mumkin, bunday xolda naqsh kompozitsiyasining kolorit yaxlitligi buzilmaydi. Bunday element ikkinchi darajali, qo‘shimcha bo‘lgan hollarda esa uni ajratadigan rang kompozitsiyadagi asosiy narsaning idrok etilishiga monelik qiladi, uning uyg‘unligini buzadi, undan chiqib ketadi. Tusi qarama -qarshi ranglarni qo‘shilishi eng uyg‘un bo‘ladi. Ammo bunday uyg‘unlik har doim ham foydali bo‘lavermaydi. Ayrim xollarda tusi qarama-qarshi ranglarning birikishi haddan tashqari keskinlikni vujudga keltiradi .

Mehnat hamda badiiy faoliyatning boshqa anchagina turlaridagi kabi naqqoshlikda ham malaka va mahoratni egallash tobora murakkablashib boradigan bosqichlarda amalga oshadi, o‘quvchilarning ma’lum darajada umum ta’limiy va psixologik tayyorgarligini talab qiladi. Shuning uchun naqqoshlik

to'garaklari barqaror va muvaffaqiyatli ishlashida ulardagi o'quvchilarni to'g'ri guruxlash muhim ahamiyatga ega.

To'garakdagi o'quvchilarni baholash birinchidan, ta'limiy-ijodiy dasturning murakkabligi ortib borishini ta'minlashi, ikkinchidan esa bitta guruxdagi har bir o'quvchi bilan sinxron pedagogik ish borishi imkonini berishi kerak. Nihoyat, o'quvchilarni yoshiga qarab differentsiatsiyalash to'garak mashg'ulotlarida ular oldiga qo'yiladigan vazifalarning kasb –hunar kollejidagi majburiy o'quv predmetlarida o'zlashtirilgan bilim va malakalariga muvofiqligini taminlash lozim.

Albatta to'garak va majburiy ta'lim dasturlari o'zaro to'la muvofiq bo'lmaydi. To'garak ishini maktabdagiga qaraganda har bir guruxga faqat bir xil bosqich o'quvchilarini jamlagan holda tashkil etishni ta'minlash maqsadga muvofiq. Guruhlarni har bir bosqichga qarab differentsiatsiyalashda asosiy qoidani buzishga majbur etadigan yana boshqa sabab - o'quvchilarda badiiy iste'dod va qobiliyatlarning turli darajada rivojlangan bo'lib, xuddi shunga ko'ra badiiy ta'lim vazifalarini hal qilishda katta farqlarni kuzatish mumkin. Ana shularni nazarda tutib o'quvchilarni to'garakka qabul qilishdan oldin ularning qobiliyatlarini, tayyorgarlik darajasini aniqlash kerak.

Ma'lumki, dastlabki bosqichda ta'lim olayotgan o'quvchilarning ayrimlari keyingi keyingi bosqich kategoriyasidagi o'quvchilarga tavsiya etiladigan dastur bo'yicha badiiy ijodning har xil turlarini egallash uchun zarur imkoniyat va katta resurslarga ega bo'ladilar. O'quvchilarning badiiy tayyorgarligi va qobiliyati o'z guruxi uchun yetarli darajada rivojlanmaganligiga asoslanib kichik gruppada mashg'ulotlarga jalb etish ham ma'qul emas. Shunday qilib, to'garak guruxlarining yosh sostavini belgilaydigan ikkita asosiy omil mavjud: 1)to'garak gruppalaridagi mashg'ulotlar dasturining kasb-hunar kollejidagi majburiy ta'lim dasturlariga rasman muvofiqligi; 2) har bir o'quvchining mazkur guruxdagi mashg'ulotlarga umumiy va maxsus tayyorgarligining haqiqiy darajasi.

Bizningcha, turli davrlarda tabiiy o'sish va ta'lim –tarbiya jarayoni natijasida egallagan jismoniy va psixik imkoniyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil

qilishda asosan quyidagi jihatlarni etiborga olish zarur: 1) o'quvchilardagi naqqoshlik ishlarining qandaydir bitta yoki bir nechta turlari bilan shug'illanishga jismoniy tayyorgarlikni; 2) bitta guruxdagi bir xil yoshli o'quvchilarning psixologik birlashuvini; 3) bir necha "yondosh" o'quv yillaridagi ta'lim dasturlarining o'z harakteri va yo'nalishlari bo'yicha, tasviriy san'at, fizika, kimyo, matematika, mehnat, adabiyot, tarix fanlarida o'rganiladigan masalalarni quyishning murakkabligi va chuqurligi darajasi bo'yicha o'zaro yaqinligini.

Ana shu uchta jihatning naqqoshlik to'garagida o'quvchilarni bosqichlarga bo'lib jalb qilish ahamiyatini ko'rib o'tamiz.

O'quvchilar 1-kursdan boshlab to'garak mashg'ulotlariga jalb qilish maqsadga muvofiqdir. To'garak qatnashchilarni uchta guruxga ajratib qabul qilinadi.

1-kurs talabasi jismoniy va aqliy rivojlanishi unga naqqoshlik to'garagida shug'ullanishga to'la imkon beradi. Badiiy ijodning ana shu turining texnika texnologiyasi ortiqcha jismoniy kuch sarflashni, uzoq vaqt muskullarni zo'riqtirib ishlashni va diqqatni bir joyga to'plashni talab qiladi.

2-3-kurs o'quvchilarga qo'yiladigan talablar ortadi, beriladigan topshiriqlar murakkablashadi, o'quvchilarda esa mashg'ulotlarga barqaror qiziqish namayon bo'ladi, sabotlilik, o'z ijodiga jiddiyroq munosabat vujudga keladi. Respublikaning kasb-hunar kollejlarning mashg'ulot dasturlari to'la to'kis ana shu ma'lumotlarga asoslanadi. Badiiy naqqoshlik to'garagi mashg'ulotlari dasturi quyidagi talablarni to'la qondiradi:

1. Kasb-hunar kollejlari oldida turgan ta'lim-tarbiya vazifalariga javob beradi.
2. Mashg'ulotlar vazifalarning asta-sekin murakkablashuvini hisobga olib tashkil etiladi.
3. Mashg'ulotlar kerakli materiallar, asbob-uskunalar va bajarish texnikasi haqida to'la tasavvur hosil qiladi.



4. Naqqoshlik mashg'ulotlari o'quvchilarning badiy didini va ijodiy qobiliyatini ruvojlantirishi, halq ijodiga va ustalariga qiziqish hamda muhabbat uyg'otishi kerak.

Dastur quyidagi prinsiplar asosida tuziladi:

1. Naqqoshlikning spetsifikasini hisobga olish.
2. To'garak qatnashchilarining yosh hususiyatlarini va san'atning ana shu turiga qiziqishlarni hisobga olish.
3. Ta'limiy-ijodiy vazifaning asta sekin murakkablashuvi.
4. O'zbek halq naqqoshligining milliy an'analari.

Birinchi fazo – harakatning ayrim elementlarini o'rganish va qator alohida detallarni bitta butun qilib birlashtirish. To'garak rahbari ana shu bosqichda cho'tkani qo'lda qanday tutish kerakligini, to'g'ri chiziq va egri chiziqlar qanday chizilishini ko'rsatadi. Bu ish avval bolaga bir muncha qiyinchilik tug'diradi; uning qo'llari va barmoqlari o'ziga yaxshi itoat etmaydi, bu hol ayniqsa qog'ozga emas, balki boshqa materallarga ishlashda ko'proq yuz beradi. To'garak qatnashchilari cho'tkani ikkita barmoq bilan ushlab faqat jimjiloqqa tayanish o'rniga ko'pincha uni peroli ruchka singari ushlaydilar.

Qo'lni ishlatishda quyidagi qoidalarni bilib olish zarur. Stol yonida tirsak va ko'krak bilan tayanmay erkin o'tirish, gavgani stoldan muayyan oraliqda tutish lozim. Cho'tkani ikkita barmoq - bosh va ko'rsatkich barmoqlar bilan ushlab, ishga faqat jimjimoloqni tirab turish kerak; bordi-yu bu qiyinlik qilsa, mushtabdan foydalanish mumkin.

## **II-BOB. SOVG‘A BUYUMLARI VA MILLIY USLUBDAGI KO‘ZGULARNI NAQQOSHLIKDA BEZASH BOSQICHLARI**

### **2.1-§. Sovg‘a buyumlarining turlari, ularning shakllari va ishlatilishi**

Hozirgi kungacha yog‘ochdan yasalgan sovg‘a buyumlar turmushimizda keng qo‘llanilib kelingan. Bulardan o‘yma ramka, qutichalar, o‘yma laganlar, kursi va xontaxtalar, binolar uchun bezaklarni alohida o‘rin egallaydi.

Ramkalar yog‘ochdan yasalib, turli maqsadda ishlatiladi. Ya’ni moybo‘yoq bilan ishlangan tasviriy san’at asarlari, portretlarning o‘lchamlariga moslab yasaladi. Bunday ramkalarga odatda bir xil bo‘yoq yoki lok surtib qo‘yiladi.

Suratga olingan portretlar va yig‘ma foto rasmlar uchun bo‘yog‘i bilan naqshlangan ramkalar ishlatiladi. Ramkalar 18x30, 30x40, 40x50 kabi standart o‘lchamda buladi. Ayrim vaqitda esa rasmlarning o‘lchamiga ko‘ra ishlanishi ham mumkin.

Ramkalarining kishilar hayotidagi roli juda katta. Chunki har bir xonadonga kirsangiz uyning to‘rida, ya’ni yuqori qismida ramkaga olingan portret yoki chiroyli rasm osig‘liq turganini ko‘ramiz. Bir xil bo‘yoq bilan ishlanadigan ramkalar odatda yumshoq yog‘ochdan (arg‘uvon yoki qarag‘aydan) yasaladi. Guash bo‘yog‘i bilan bezatiladigan ramkalar quruq qarag‘ay va arg‘uvon yog‘ochidan ishlanishi kerak.

O‘tgan davrlarda qutichalar zeb-ziynatlarni saqlaydigan buyum sifatida ishlatilardi. Hozirgi vaqtda esa o‘sha vaqtda yasalgan qutichalar san’at durdonalari sifatida muzeylarda saqlanadi. O‘yma qutichalarning o‘rtacha kattalikdagi o‘lchamlari eni 20 sm, bo‘yi 30 sm, balandligi 10 sm bo‘ladi. Bu o‘lchamlar chegaralangan emas, qutichalarni bundan kattaroq yoki kichikroq o‘lchamlarda ishlasa ham bo‘ladi.

O‘yma qutichalar uchun yog‘och materialini tanlash katta ahamiyatga ega, ishning sifatli chiqishi ham shunga bog‘liqdir. Buning uchun ko‘zsiz, darz ketmagan, benuqson hamda rangi bir xil yog‘ochlarni tanlash lozim. O‘yma qutichalar uchun eskiz bo‘lsa, shu eskiz o‘lchami asosida quticha detallari tayyorlanadi va ular yig‘ilib quticha yasaladi.

Agar qutichaning o‘zi tayyor bo‘lsa, shu quticha asosida eskiz tayyorlab, naqsh gullari chizilib, o‘yiladi. “Lola islimi” naqshi asosan ramkalarni va qutichalarning

yuzini bezatishda ishlatiladi. “Bofta islami” naqshlar, sakkiz, olti, to‘rt qirrali qutichalarning ust taxtalarining yuzini bezatish uchun ishlatiladi.

Murakkab naqshlar o‘simliksimon va geometrik shakllardan tashkil topadi. Ikki qavatli qilib o‘yilgan murakkab islami naqshlarga “Muqarnos” deyilib, ular qattiq yog‘ochlarga o‘yiladi. Xorazm, Samarqand ustalari “Islimi muqarrari” deb ataydigan naqshlarni eshik va darvozalarning dilalarini, ustunlarni o‘yib bezashda qo‘llanganlar. Bu naqshni tuzishda islami yo‘llarning bir-birlari orasidan o‘tishi, marg‘ula va barglarning turli shakllari uning anchagina murakkablagini bildiradi. Bu xildagi naqshlar 10mm dan 20 mm gacha chuqurlikda o‘yiladi.

Naqshning tuzilishi murakkab bo‘lganligi uchun uni o‘yishda har xil tuzilishdagi iskana qalamlar ishlatiladi. Ayrim murakkab naqshlar zamini chekilmasdan tekis va ko‘rkam ko‘rinishi uchun qo‘shimcha yo‘llar, uzma chiziqlar chiqarib pardoatlanadi.

Ishlanadigan buyum oddiy va yumshoq yog‘ochdan yasalgan bo‘lsa, ularga mayda naqsh ishlamasdan, yirik naqshlar ishlash lozim. Mayda buyumlarning yuzini bezatishda esa ko‘proq mayda naqshlardan foydalanish lozim. O‘yilgan buyumlar havo ta’sirida o‘zgarmasligi uchun loklanadi. O‘yilgan buyumning yuzini loklashdan oldin jilvirlash vaqtida o‘yma naqshlarning zaminiga tushib qolgan yog‘och zarralarini yumshoq cho‘tka bilan tozalanadi. Loklash ishi sifatli bo‘lishi uchun buyum ikki marta loklanishi va loklash orasida bir-ikki sutka vaqt o‘tishi lozim. Talabalar murakkab naqshlarning tuzilishi va ularni chizishni bilib olganlaridan keyin bunday naqshlar qo‘llaniladigan buyumlarni tayyorlash va o‘yishga kirishishlari mumkin.

Talabalar murakkab naqshlarning tuzilishi va ularni chizishni bilib olganlaridan keyin bunday naqshlar qo‘llaniladigan buyumlarni tayyorlash va o‘yishga kirishishlari mumkin.

**Lagan o‘yish.** Laganlar asosan quyuq ovqatlar solinadigan buyum bo‘lib, sopoldan, chinnidan va yog‘ochdan yasaladi. Sopol laganlar loydan, chinni laganlar oqtosh maydasidan yasalib, maxsus pechlarda pishiriladi. Pishirilgan laganga bo‘yyoq berilib, naqsh gullar tushirib yana pechkada pishiriladi.

Yog'ochdan tayyorlanadigan laganlar alohida o'yish mahoratini talab etadi. Buning uchun yaxshi quritilgan ko'zsiz, enli taxtani yog'och yo'nuvchi tokarlik stanogida yo'nib, yumaloq shaklga keltiriladi va ichki qismi botiqroq qilib yo'niladi, shu tariqa lagan shakli yuzaga keladi. Tayyor bo'lgan buyumning yuziga axta yordamida naqsh tushiriladi.

Axta esa quyidagicha tayyorlanadi: naqsh tushiriladigan buyum yuzining hajmiga qarab axtaga mo'ljallangan shaldiroq qog'oz (kal'ka) kesiladi. Chiziladigan naqshni bo'laklariga va tuzilishi simmetriyasiga qarab ikki, to'rt, sakkiz bu qalam bilan chiziladi. Gul chizig'ining ustidan igna bilan teshib chiqiladi. Har bir teshikning oralig'i ikki mm dan oshmasligi shart. Axtani naqsh tushiriladigan buyumning ustiga yozib, chap qo'l bilan ushlab o'ng qo'lga ikki qavat dokaga o'ralgan oq yoki qora kukun qog'ozining ustidan bir oz silqitib bosib suriladi. Buyumning yuzida nuqtalar ko'rinishida naqsh yo'llarining izi qoladi. Bu izlar ustidan qora qalam birga chizib chiqamiz. Chizilgan naqshga kerakli o'yma qalamlar tanlanib, naqsh chetlari kesib chiqiladi va zamin o'yiladi. O'yilgan naqshlarning tagi chakichlab pardoatlanadi.

**Quticha yasash.** Yasaladigan qutichalar katta hajmda bo'lmasligi kerak. Ularning o'lchami taxminan shunday, ya'ni eni 10 sm, bo'yi 20 sm bo'lishi mumkin. Qutichaning ichki tomoni katakchalarga bo'linsa, turli buyumlarni alohida-alohida qo'yish mumkin.

Dori qutichasini yasash. Dori qutichasining eshiklari oynali bo'lishi lozim. Uni duradgorlik mashg'ulotlarida, to'garak o'tiladigan dars jarayonida yasash mumkin. Dori qutichasi ham o'yma lagan singari axta tayyorlanib, axta yordamida gul tushirib o'yiladigan, chakichlanib, pardoatlanadi. Dori qutining yoni va yuqori qismi berilgan.

**O'yma kursicha.** Kursi stullar har xil shaklda bo'lib, uch qirrali, qirrali, olti qirrali bo'ladi.

Kursichilar uchun bir xil rangli ko'zsiz quruq yog'och tanlanadi. Buyum yasashdan oldin yog'ochlarga arra va randalar yordamida ishlov beriladi. Kursicha murakkab birikmalar yordamida ishlov beriladi. Kursicha murakkab birikmalar

yordamida yigʻilib, biriktiriladi. Naqsh tushirish yoʻllari dori quti va oʻyma laganlar singari axta yordamida gul tushirib oʻyiladi hamda chakichlab pardoatlanadi.

**Medalonlarni oʻyish.** Medalon – italyanча soʻz boʻlib, “medal” maʼnosini anglatadi. Medalʼonlar koʻpincha doira yoki oval shaklida ishlanadigan yassi quticha, ziynat buyumi, yassi gʻilof boʻlib, ichida koʻpincha rasm ishlangan boʻladi. Uning sirti chiroyli tasvir (rasm, naqsh) bilan bezatiladi. Medalon nozik zanjir bilan taqib yuriladi. Dekorativ amaliy sanʼat sohasida doira yoki oval shaklida ishlangan relʼef naqshlar ham shu nom bilan ataladi.

Medalon ishlash yogʻoch oʻymakorligining nozik sir-asrorlarini qoʻllash lozimligini taqozo etadi. Ular shakliga koʻra toʻgʻri toʻrtburchak, qvadrat, doira, ovalsimon, 6, 8 qirrali boʻlishi mumkin. Ularga ishlanadigan naqshlar ham turlicha tanlanadi.

Yogʻochga qanday naqsh oʻyilishi yogʻochning tusiga, qattiq va yumshoqligiga qarab belgilanadi va eskiz chiziladi. Oʻymakorlikda oʻyiladigan gul har xil boʻlib buyumlarning yuziga pardozsiz, sayoz qilib oʻyiladi. Bogʻdodi naqshlar koʻpincha terak yogʻochiga oʻyiladi.

Toshkent, Fargʻona ustalari mayda buyumlarning yuzini bezatishda, yaʼni 6, 8 rahli stollar, qutichalar, bolalar kursilariga pargari naqshlar ishlatadilar.

Oʻsimlik elementlaridan tuzilgan naqshlar bir-biriga oʻxshash aylanma chiziqlar, barg, margʻullardan tashkil topadi. Bu naqshning oʻyilish chuqurligi 0.5 sm 1.5 sm gacha boradi. Bunga kapalak naqshi misol boʻladi.

Naqsh oʻyishni boshlaganda avval uning yarim gajak margʻulalari nova iskanalar bilan kesib chiqiladi. Keyin naqshning novdalari baliqsirti iskana bilan kesiladi. Soʻngra zamin iskana bilan naqsh zamini oʻyib olib tashlanadi. Naqsh zamini chiroyli koʻrinishi uchun chekma iskana bilan sakichlab chiqiladi. Bu naqsh yoʻllarini aniq va koʻrkam koʻrsatadi.

## **2.2. Milliy uslubdagi ko'zgularga qo'llanilgan naqsh turlari, ularning tuzilishi va nomlanishi**

Xalq amaliy bezak san'ati buyumlari qatori milliy uslubdagi ko'zgularga naqshin badiiy bezak ishlash san'ati ham alohida o'rin egallaydi. Milliy uslubdagi ko'zgularni ranglr orqali naqshlash-avloddan-avlodga o'tib kelayotgan noyob san'at turi hisoblanadi. U asrlar o'tishi bilan tobora sayqal topib, mukammallashib boradi, faqat uning qo'llanilish o'rni, vazifalari qisman o'zgarishi, bezak unsurlari (elementlari) talqinida turli-tuman yangiliklar sodir bo'lishi mumkin. Milliy uslubdagi ko'zgularni bezatilishining asosini naqsh ya'ni ma'lum tartib va izchillikda joylashtirilib tuzilgan yaxlit bezaklar tashkil qiladi. Naqshlar asosan, o'simlik dunyosi: novda, barg, gullar, mevalar, geometrik shakllar: uchburchak, to'rtburchak, oltiburchak, aylana kabilar va hayvonlar tasvirini naqqoshlar tomonidan badiiylashtirib hosil qilingan bezakdir.

Milliy uslubdagi ko'zgularga ham o'zining mazmuniga, ko'rinishiga va tuzilishiga ko'ra-o'simliksimon (islmiy), geometrik, gulli girix va ramziy turlarga bo'lib qo'llanilib kelinadi.

**O'simliksimon naqshlar-** tabiatdagi o'simlik dunyosidagi daraxt, gullarning bandlari, butalari, barglari, kurtak va g'uncha kabi qismlarini naqqosh tomonidan o'zlashtirilib, badiiylashtirilib olingan shakllarini ma'lum qonuniyatlar asosida ritmik takrorlanishidan hosil qilinadi.

**Geometrik naqshlar-** milliy uslubdagi ko'zgularning tuzilishiga qarab keng qo'llanilib kelinadi. U girix turkumidagi naqshlarni o'z ichiga oladi. Girih-chigal, tugun ma'nosini anglatib, murakkab handasiy naqsh turi hisoblanadi. Girihlar geometrik shakllar: uchburchak, to'rtburchak, oltiburchak, aylana va yoy hamda ko'pburchak kabilarni o'z tarkibiga olib, tuzilishi jihatidan to'g'ri chiziq, egri chiziq hamda aralash chiziqlardan tashkil topgan guruhlarga bo'linadi. Girihlar ham uzluksiz rapportlardan tashkil topgan bo'lib, har bir rapport o'z tuzilishiga ega bo'ladi.

**Gulli girih-**girih orasiga islmiy naqsh bilan to'ldirilgan murakkab naqsh turi.

**Ramziy naqsh-** shartli bezak; biror g'oya, tushuncha, hodisa va shakllarni

ifodalaydi, eslatadi. Bu naqsh davlat ramzlari, yulduz, bug`doy va boshqa biror shartli shakllarni tasvirlaydi.

Qadimdan naqqoshlik san`atida milliy uslubdagi ko`zgularga qardama naqsh ishlash, naqsh qoplash san`ati chinakam gullab yashnaganligini ko`rsatuvchi ajoyib misollar bor. Xalq ustalari bu sohada bir talay ishlar qilishgan va zo`r san`at yaratishib kelishgan. Ana shunday benihoya ulkan san`at asarlaridagi naqshlar qanday mazmunga ega, qayerlarda qo`llaniladi va ularning chizilish texnologiyasi, o`ziga xos qonuniyatlari nimalardan iborat?

Yuqorida tanishib chiqqan fikrlarni davomi sifatida milliy uslubdagi ko`zgularga qo`llaniladigan naqsh turlarining mazmuni, nomlanishi bilan tanishib chiqamiz.

Naqqoshlar tomonidan yaratilgan naqsh kompozitsiyalardagi har bir tasvirni sinchiklab ko`zdan kechirganimizda, uning zamirida ramziy ma`nolar yashiringanligi yaqqol ko`rinadi. Ular oddiy yoki g`oyat murakkab naqsh namunalarida ham eng yaxshi ezgu tilaklarni aks ettiradilar. Xususan, naqshlardagi unsurlarda va ularda qo`llaniladigan ranglarda o`zlariga xos ma`nolar mujassamlashgan. Masalan, gulsafsar-osoyishtalik va umr uzoqlik timsoli, to`lqinsimon gul poyasi boyluk va farovonlik timsoli, novda va yaproqlar esa to`kinchilik hamda tabiatning bahor chog`ida uyg`onishini anglatadi. Ushbu ma`no va mazmunlar mujassamlashtirilib bunyod etilgan naqsh kompozitsiyalar naqqoshlarning ona tabiatga chuqur muhabbatlarini ifoda etib, ularning jo`shqin hayot bilan doim hamnafas ekanligini bildiradi. Shuningdek, naqshlar bilan bezash xalq tasavvurida tilsim, sehr-jodu, aqidalar, urf-odatlar va pand-nasihatlar bilan ham qorishib ketganligini ko`ramiz.

Har bir naqshning o`z nomi va mazmuni bo`ladi. Shunday ekan naqshlar naqshlanadigan buyumning shakli hamda qanday maqsadda ishlatilishiga qarab tanlanaladi.

Masalan: turunj, islimiy, madohil, hoshiya, yaq raftor, lo`la hoshiya, islimiy guldona, hashti tufsar ruta, anorgul, morpech, islimiy guldona, islimiy madohil lamti, tufsor, sarkig`on tufSORI holat, xonasi bo`rtma, xashti davra, chorsar, davri sitora, shomdona yolpig`ich, zanjira, yakka zanjira, ganch islimiy, islimiy parrok,

oftoba, erkin islimiy, bodom, islimiy, gulli aylana islimiy, bargil islimiy, bargli raftor, mexrob, islimiy, patlis, gulli islimiy, 5-rahli girih, 5 – 10 rahli girih, shoxbarg, islimiy qo‘sh bargli islimiy lunabbatli girih, munabbati gul va boshqalar kiradi.

Morpech – (tojikcha mor – ilon, pech o‘ralgan) ilon izi shaklidan iborat bo‘lgan islimiy hoshiya naqsh. Morpech ganchkorlikda takcha, namoyon izora chetlariga hamda naqqoshlikda esa eshik, namoyon izora stol, stul va boshqa narsalarning chetiga ishlanadi.

Milliy uslubdagi ko‘zgularga qo‘llaniladigan naqshlardan biri ruta naqsh kompozitsiyasidir. Ruta – (ruscha – bordyur) ikki tamoniga ulanuvchi naqsh taqsimi, hoshiya naqsh. Chizilayotgan naqsh nusxasining xarakteriga qarab ketma-ket, to‘ntarma usullarda unalishi mumkin. Naqqosh-ruta naqsh koipozitsiyasini chizayotganda to‘ntarib takrorlaydi va axta yordamida aylantirib to‘liq kompozitsichsini hosil qiladi. Ruta kompozitsiyasida bir yoki ikki ba`zan uch chiqish nuqtasi o‘rtada bo‘ladi(bo‘sh joylarni to‘ldirishda hizmat qiladi). Ketma-ket ulanuvchi rutalar bir ikki uch yo‘naluvli bo‘lishi mumkin.

Namoyon - forsha so‘z bo‘lib kurinishi: manzara demakdir. Ruscha panno. Namoyon eng mukamallangan etuk naqsh kompozitsiyasi. Namoyon vaqelikning umumlashgan tasviriy obrazini o‘ziga aks etadi. Namoyon murakkab naqsh kompozitsiya turiga kirib uning o‘simliksimon geometrik, gulli girih, ramziy va boshqa turlari mavjud.

Har bir naqqoshlik maktabida namoyon naqsh kompozitsiyalari turlicha shaklda va o‘ziga xos uslubda ishlanadi. O‘zbek naqqoshlari manzarani aks etirishga ahamiyat berdilar, asosiy e`tiborni dinomikaga qaratadilar, gul, barg elementlar ko‘proq ko‘zga tashlanadi.

Umuman, aytganda namoyon naqsh kompozitsiyalari Buxoro, Samarqand va Toshkent shaharlari zamonaviy binolarida keng qo‘laniladi. U ko‘proq devorning yuza qismiga ulanadi, chetlariga bo‘rtma naqshlar o‘yiladi.

Azaldan milliy uslubdagi ko‘zgularga ishlanadigan naqsh turlaridan yana biri munabbat naqsh kompozitsiyalaridir. Munabbat-arabcha so‘zdan olingan bo‘lib



o‘stirmoq degan ma`noni anglatadi. Asosi to‘g‘ri to‘rtburchakdan tashkil topib to‘rt tomonga takrorlanadigan naqsh taqsimi. Katta yuzalarni bezashda munabbat naqsh kompozitsiyalaridan keng foydalaniladi.

Munabbat naqsh kompozitsiyalari O‘rta Osiyo naqsh kompozitsiyalarida ko‘p qo‘llaniladi. Naqqosh munabbat naqsh kompozitsiyalarini chizayotganda uning to‘rt dan bir qismini olib, bir bo‘lakka naqsh kompozitsiyani chizib, keyin esa axta (ulgi) yordamida to‘rt bo‘lakka tushirib chiqilib to‘liq munabbat naqsh kompozitsiyalari hosil qilinadi. Munabbat naqsh kompozitsiyalarining o‘simliksimon, geometrik, ramziy va boshqa turlari bor. Bulardan munabbati mehrob munabbati bofta, munabbati islmiy, munabbati girix va boshqalarni sanab o‘tishimiz mumkin.

Milliy uslubdagi ko‘zgularning bezatilishida turunj naqsh kompozitsiyalari ham alohida o‘rin egallaydi. Turunj – arabcha limon degan ma`noni bildiradi. Ruscha medalion. Turunj naqsh kompozitsiyalarining ko‘rinishi aval shaklida bo‘lgani uchun uni shu nom bilan yuritiladi. Turunj naqsh kompozitsiyasi xech qanday naqshga ulanmay, muallaq turadigan naqsh kompozitsiyasi bo‘lib, uning shakli asrlar davomida rivojlanib boyigan.

Hozir uning doira 5 – 10 rahmi yulduz: aval, romb, elips shakllari mavjud. Ana shu tanishib chiqqan barcha naqsh kompozitsiyalarini shu bino ichki qismini bezatishidan keng qo‘llaniladi.

### **2.3-§. Milliy uslubdagi ko‘zgularga moslab naqsh kompozitsiyalarini tuzish bosqichlari va qonuniyatlari**

Yuqoridagi fikrlarni davomi sifatida endi milliy uslubdagi ko‘zgularga qo‘llaniladigan naqsh turlarini tuzish bosqichlari va qonuniyatlari kabi ma‘lumotlarni ko‘rsatib o‘tish ma‘suliyati turadi.

Milliy uslubdagi ko‘zgularga moslab ana shunday naqshlarni ishlashdan oldin, ularning ramziy ma‘nosi va mazmunini anglab etgandan keyingina tabiatdan olingan ma‘lum qonuniyatlar asosida naqsh kompozitsiyasini tuzish, ya‘ni chizish geometriyasini nazariy, hamda amaliy puxta o‘zlashtirilishi zarur.

Har qanday milliy uslubdagi ko‘zgularni bezashda uning, tuzilishi chuqur o‘rganib, keyin unga mos naqsh turi va naqsh kompozitsiyasini tanlash, qo‘llash, o‘z – o‘zidan muhim ahamiyatga ega. Kichik xajmdagi kursichalarga sodda naqsh kompozitsiyalari turlaridan, katta xajmdagi kursichalarga esa murakkab yirikroq naqsh kompozitsiyalari qo‘llaniladi.

O‘zbek naqqoshllari asosan milliy uslubdagi ko‘zgularni bezashda, juda aniq qunt bilan ishlashga harakat qilganlar. Nozik o‘simliksimon geometrik naqshdagi o‘zaro singishib ketgan novdalar, shohlar va hoshamatli tasvirlangan gullarning ritmik harakati, - o‘zbek ustalarining ishlaridagi islmiy va girih naqshlarning klassik motivlari buyumning shakliga moslashgan. Tekis yuzalarni bezashda aniq sistema mavjud bo‘lgan. Bularning vertikal va gorizontal yo‘nalmalari o‘ziga xos tarzda qismlarga bo‘linishi o‘zbek an‘anaviy qurilmalaridan kelib chiqqan. Ustalar mazkur sistemani buzmaganda holda o‘zaro ohista qo‘shilib ketgan ajoyib medol‘ionlar, simmetrik kataklar yoki gullangan shohlar turi guldastalar, gul tuvakdagi gullar, daraxtlar ba‘zan hatto manzara bilan to‘ydirilgan chiroyli baland kalonnalarning g‘oyat hilma xil naqsh kompozitsiyalarini yaratganlar. Shuningdek, ular turli ko‘rinishdagi hoshiyalarni, uchburchakli o‘yiqlardan iborat – eskiz bir maromda yugurib kelayotgandek tuyulladigan o‘simlik novdalaridan iborat enli hoshiya naqsh kompozitsiyalarini ishlaganlar.

Milliy uslubdagi ko‘zgularning konstruktsiyalariga va detallariga tarkibiy bog‘langan naqsh kompozitsiyalar ishlanadigan naqsh kompozitsiyalarini tuzish

chizish qat'iy qonun-qoidalaridan iborat bo'ladi. Bu qonun-qoidalar tabiatning o'zidan olingan. O'simliklar faqat bir tomonga qarab o'sadilar. Masalan, majnuntol, xuddi pastga qarab o'sayotgandek tuyuladi, lekin harakatda esa, u ildizdan tana, tanadan novda, novdadan barg bo'lib, bir tomonlama yo'nalishda davom etib keladi. Tabiatning bu qonuni naqshda o'z aksini topgan. Usta chizadigan naqshlar shunchaki qog'oz betini to'ldirish emas balki, ongli ravishda tabiat va badiiylik qonun-qoidalariga amal qilgan holda manzara tasvirini chizish tushiniladi. Shuning uchun xalq amaliy san'atining boshqa turlari qatori naqqoshlik san'ati ham eng qiyin va ma'suliyatli bosqich kompozitsiya nusxasini chizishdir. Agar naqsh kompozitsiyasi tabiat qonuniga zid bo'lsa, ranglashda va pardozlashda har qancha yutuqqa erishilsa ham ish ko'ngildagidek chiqmaydi. Naqsh kompozitsiyasini birdaniga qaraganda chiroyli ko'rinadi, bir ozdan keyin naqsh nuqsonlari sezilib qoladi. Xo'sh, kompozitsiyaning o'zi nima?

**Kompozitsiya**—lotincha so'z bo'lib, to'qish bir-biriga ma'lum tartibda joylashtirish, solishtirish ma'nosini anglatadi. Naqsh kompozitsiyasini ishlashda ritm, simmetriya, assimetriya, komponovka, doiraviy takrorlanish, markaz topish, bezakning dinamikligi, tabiiyligi, chiroyligini, pardozlarning va ranglarning uyg'unligi kabi komponentlarni o'z ichiga oladi.

**Komponovka** (joylashtirish)- chizayotgan naqsh yoki biror tasvirni qog'oz yoki biror yuzaga to'g'ri joylashtirishni tushinamiz.

**Simmetriya**-grekcha so'zdan olingan bo'lib, o'lchovlarning bir – biriga mosligi, tengligi, mutanosibliigi kabi ma'nolarni anglatadi.

**Ritm** - kompozitsiyasini eng kuchli va xarakterli asosi hisoblanadi. Ritm naqsh elementlarini ma'lum masofada bir tekisda takrorlanib kelishi bo'lib, naqshdagi harakatning uzluksiz va go'zal ko'rinishi ta'minlaydi.

**Assimetriya** - kompozitsiyada simmetrik muvozanatning buzilish tushuniladi.

**Stilizatsiya**-tabiatdagi o'simlik, hayvon odam va boshqalarni tuzilishini naqqosh tomonidan badiiy usulda umumlashtirib tasvirlashdir.

Naqsh kompozitsiyasini chizishda quyidagilarga qat'iy rioya qilish kerak:

1. Tanob yoki novda tagidan gul, g'uncha bargni qoldirib tasvirlash mumkin

emas.

2. Tanob bilan novdani farqlab tasvirlash.
3. Taqsimda ortiqcha nusxa chizib qo‘ymaslik
4. Tanobdan hech qachon gul, novda g`uncha va boshqa o‘sib chiqmasligi:
5. Naqsh elementlarining nisbatini saqlash.
6. Naqsh chiziladigan yuzaga moslab naqsh kompozitsiyasini tuzish.
7. Naqsh kompozitsiyasidagi zamin bo‘shliklarni nisbatini saqlash va hakazolarni sanab o‘tishimiz mumkin.

Yuqoridagi qonun-qoidalarga bo‘y sungan holda milliy uslubdagi ko‘zgular uchun naqsh kompozitsiya eskizlari tayyorlanadi va buyum yuzasiga axta yordamida tushiriladi, ranglash pardoqlash bosqichlarini bajarishga tayyorlab qo‘yiladi.

## **2.4-§. Milliy uslubdagi ko‘zgularga naqsh kompozitsiyalariga rang tanlash, ranglash va pardoqlash texnologiyasi**

Har qanday buyum yuzasi uchun naqsh kompozitsiyalarni yoddan bemalol chizishni o‘rganib olgandan so‘ng, bo‘yoqlar va rangshunoslik haqida ma‘lumotga ega bo‘lishimiz kerak.

Milliy uslubdagi ko‘zgularga chiziladigan har qanday naqsh kompozitsiyasiga rang tanlashda o‘ta kuchli e‘tiborni qunt va malakani talab qiladi. Buning uchun buyumlar yuzasiga tushirilgan naqsh kompozitsiyalarining tuzilishiga qarab rang tanlash va bo‘yash bosqichlari bajarilib boriladi.

Milliy uslubdagi ko‘zgularga chizilgan naqsh kompozitsiyasini bo‘yashdan oldin, unga ishlatiladigan rangli bo‘yoqlar asosan guash, siqma akvarellarni tanlab yig‘ib olishimiz kerak. Naqsh kompozitsiyasini bo‘yashdan oldin qog‘ozga palitrada ranglar koler tasvirlash mashq qilinadi. Guash juda suyuq bo‘lsa naqsh yuzasi tekis bo‘lmaydi. Agar guash juda quyuk bo‘lsa mo‘rt bo‘lib ko‘chib tushadi. Rang tayyorlashda chinni yoki plastmassa idishchalardan foydalaniladi. Har bir rangli guashga alohida-alohida yog‘och kurakchalar ishlatiladi. Naqshlarni bo‘yashda elementlarning aniqligiga, simmetrikligiga e‘tibor berish, rang gammasiga, koloritiga, ranglarni bog‘liqligiga va tiniqligiga, ko‘zga yaqqol tashlanadigan dog‘larning bo‘lmasligi, naqshlarni toza va ozoda chiqishi, naqsh kompozitsiyasining ta‘sirchanligiga bo‘yoq qavatlarining tekis chiqishiga, guash texnologiyasiga qat‘iy rioya qilish kerak.

Naqsh kompozitsiyasi biror gammada masalan, yashil, zangori, jigar rang, pushti, limon rang yoki boshqalarda bo‘yaladigan bo‘lsa, qaysi rang asosiy kolorit rang bo‘lsa shu hukmron rangga bo‘ysundiriladi. Naqshdagi qolgan har qanday ranglar shu rang gammasini buzmasligi kerak.

Naqsh kompozitsiyasini ishlashda garmoniya, faktura va kontrastga e‘tibor berish kerak.

**Garmoniya**– gerekcha so‘zdan olingan bo‘lib munosiblik, bog‘liq bo‘lish, muvofiqlik, degan ma‘noni anglatadi. Naqqoshlikda naqshning o‘lchami rangi, shakllari nisbatidagi eng chiroyli uzviylik.

**Faktura**– lotincha tuzilishi ishlab berish degan ma`noni bildirib naqsh yoki biror tasvirni ishlanadigan buyum sirtining tuzilishi va uning ishlovi.

**Konstrast**- frantsuzcha keskin farq degani bo`lib, ranglarning qarama-qarshi yoki ranglarni bir-biridan keskin farqi.

Milliy uslubdagi ko`zgular yuzasiga, axta yordamida tushurilib chiqilgan naqsh kompozitsiyalari quyidagi bosqichlarda bo`yaladi.

1. Eng avvalo naqsh kompozitsiyasi zamini, ya`ni katta yuzalar.
2. Kichik yuzalar.
3. Barg g`unchalari va boshqalarni.
4. Naqsh kompozitsiyasining gullari va barglari pardoz ya`ni targ`il beriladi.

Ana shu bosqichlar to`liq bajarilgandan keyin naqsh kompozitsiyasi mukammal tugalgan hisoblanadi. Yana bir narsani ya`ni naqsh kompozitsiyalari barg gullari, g`uncha va barglarga pardoz ya`ni targ`il berish texnikasini o`zlashtirish talab qilinadi.

Pardozlash texnikasini ham quyidagi bosqichlarda bajariladi:

1. Parallel ingichka chiziq taroqlari.
2. Naqsh, barg va gullarning urug` va ganchchilarni tasvirlash.
3. Targ`ilning o`rniga yedirma usullaridan foydalaniladi.

Edirma usuli ranglarni to`qdan ochlanib ishlatish yo`li bo`lib, mo`yqalam surkalgan rangli quruq suvli mo`yqalamda asta edirib tarqatiladi.

4. Naqshlarining oq bandlari va obilari tortiladi.

Pardozlash bosqichlarining chiroyligi ishning muvaffaqiyatli chiqishiga yordam beradi.

## 2.5-§. Bitiruv malakaviy ishining amaliy ish jarayoni

Biz yuqorida milliy uslubdagi koʻzgularning tuzilishi, ularga qoʻllaniladigan naqsh turlari, naqsh kompozitsiyalarining nomlanishi va ranglash, pardoqlash qonuniyatlari haqidagi maʼlumotlar bilan tanishib chiqqanmiz. Endi milliy uslubdagi koʻzgularga dastlabki ishlov berish, naqshlashga tayyorlash, naqsh kompozitsiyasi eskizini tuzish va buyumga tushirish, ranglash, pardoqlash bosqichlariga toʻhtalib oʻtmoqchimiz.

Milliy uslubdagi koʻzgularga naqsh ishlash uchun avvalo tanlangan yogʻoch materialiga dastlabki ishlov berish yaʼni buyum yuzasini tekislash lozim. Chunki dastlabki ishlov berilmasa buyum qancha chiroyli naqsh kompozitsiyalari bezalsada, buyum yuzasi gʻadir-budir chiqib ish sifatsiz chiqadi.

Milliy uslubdagi koʻzgularga dastlabki ishlov berish yogʻochni rangsiz lak bilan gruntovka qilishdan boshlanadi. Chunki agarda yogʻoch rangsiz lak yordamida boʻyalmasa naqsh kompozitsiyasi tushirib boʻyalgandan keyin yogʻoch boʻyoqni yaʼni rangni shimib olib rangning tiniq chiqishini taʼminlamaydi. Buyum laklangandan keyin yoriq va teshik joylarini kley va boʻr aralashmasidan hosil qilingan shpaklevkadan foydalanib tekislab chiqiladi.

**Shpaklovka**-nemischa kurakcha, yuzalarni boʻyash hamda pardoqlashdan oldin sirtini tekislash uchun suriladigan quyuuq massa. U boʻr (mel) yogʻoch elimi alif moyi kabi moddalarni qoʻshib tayyorlanadi. Yuzalarni shpatel yordamida quyuuq massa surtib tekislashga shpaklevkalash deb yuritiladi. Shpaklovkani suyuqroq yoki quyuuqroq qilib tayyorlashimiz qaysi joyga ishlatishimizga bogʻliq. Shpaklovka ishlatishdan avval ikkita shpatel yordamida ozgina shpaklevkani obdon bir-biridan oʻtkazib ezgʻilab, aralastirib keyin kerakli joyga surtish boshlanadi. 3 xil shpatel yordamida buyum yuzaga bir tekis surtib chiqiladi va u qurigandan soʻng choklari ustidan 2-3 marta yana shpakleka surtiladi. U qurigandan soʻng oʻrtacha va mayda donali qum qogʻozda silliqilanadi.

Soʻng yogʻoch yelimini suvda eritib dokadan yoki mayda koʻzli elakdan oʻtkazib yogʻoch sirtiga katta yaʼni 18-20 nomerli moʻyqalamda surkab chiqiladi.

Surkalgan elim qurigandan soʻng oq guashь bir tekisda surkab chiqiladi.

Qotgandan so‘ng katta nomerli mo‘yqalamda tekislab chiqiladi. Shu bosqichlarning barchasi to‘la-to‘kis bajarilgandan keyin buyum yuzasiga moslab naqsh kompozitsiyasi eskizi chizila boshlandi.

Biz yuqoridagi bitiruv malakaviy ishining rejalarida yoritilgan naqsh kompozitsiyalarini tuzish qonuniyatlariga suyangan holda milliy uslubdagi ko‘zgu yuzasiga moslab naqsh kompozitsiyasi tuzishga kirishildi.

Milliy uslubdagi ko‘zgu yuzasiga moslab naqsh kompozitsiyasi eskizlari ustida izlanishlar olib borildi. Chizilgan bir nechta eskizlar ichidan eng ma‘quli tanlab olinib pardoqlash ko‘zgusi yuzasiga axta (ulgi) yordamida tushirilib chiqildi.

Axta-naqsh yoki bir rasmni shaffof (kalka) qog‘ozga chizib chiziq yo‘llari igna bilan teshilib buyumga yoki biror sirtga tushirish uchun tayyorlangan andoza. Naqsh kompozitsiyasiga moslab simmetriya o‘qi bo‘yicha shaffof qog‘ozni ikkiga, to‘rtga va hakazolarga bu‘klanadi. Buklamani bir qismiga naqsh chiziladi. Naqshli shaffof qog‘ozni yumshoq yostiqlash ustiga qo‘yib naqsh chiziqlari ustidan igna bilan teshib chiqiladi.

Naqshni yirik va maydaligiga qarab igna tanlanadi. Igna teshigi oralig‘i naqshning mayda va yirikligiga bog‘liqdir. Agar naqsh mayda bo‘lsa igna oralig‘idagi masofa shuncha yaqin bo‘ladi. Naqsh nusxasini teshib bo‘lgandan keyin shaffof qog‘oz yoyilib yuboriladi, natijada axta hosil bo‘ladi. Tayyor bo‘lgan axtani buyum yuzasiga qo‘yib ustidan xoka bosib yurgizib chiqiladi, natijada naqsh nusxasi buyum yuzasiga ko‘chiriladi.

Milliy uslubdagi ko‘zguga naqsh kompozitsiyalari to‘liq tushirilib chiqilgandan keyin ranglash ishlariga o‘tildi.

Milliy uslubdagi ko‘zguni bo‘yamasdan oldin qog‘ozda eskizlarga ranglar tanlanib chiqildi va pardoqlash ko‘zgusiga ko‘chirish ishlari olib borildi. Ranglar plasmassa va chinni idishlarda tayyorlanib chiqildi. Xar bir rangga alohida-alohida yog‘och kurakchalar ishlatildi.

Naqsh kompozitsiyalari rangini ishlashda bir gammaga yashil ranga bo‘ysundirildi.

Milliy uslubdagi ko‘zgu yuzasiga tushirilib chiqilgan naqsh kompozitsiyalar



quyidagi bosqichlarda: eng avvalo naqshning zamini, ya'ni eng katta yuzalarni, keyin kichik yuzalar, so'ngra barg, gul, g'uncha va boshqalari naqshning bandlari bo'yalib chiqildi. Naqsh kompozitsiyasini ranglash ishlari to'liq tugagandan keyin pardozlash ya'ni targ'il berish bosqichiga kirishildi. Naqsh gullari, g'uncha va barglariga quyidagi ikki xil texnikada bezatildi:

- 1) parallel ingichka chiziq taroqlar yordamida;
- 2) barg va gullarning urug' va changchilarini tasvirlash yordamida.

Milliy uslubdagi ko'zgular yuzasiga ishlangan naqsh kompozitsiyasi to'liq tugagandan keyin bo'yoqlari yaxshilab qurigan naqshga yanada jilo berish maqsadida rangsiz lokdan foydalanib surkab chiqildi. Moyli loklar alifmoy plyonkalariga qaraganda yaxshi, tiniq, mustahkam va qattiq plyonka hosil qiladi.

Naqshlangan buyumga lok surtish qiyin jarayon emas. Masalan, yuzaga lok surtishda mo'yqalam ikki xil yo'nalishda bo'yiga va eniga parallel qilib yurgiziladi.

Bu jarayon bir necha marta takrorlanadi va rangsiz lok yaxshilab quritildi. Shundan keyin oq tempera bilan obisi tortilib ish to'liq yakunlandi.

## **Xulosa**

Malakatimizda har qanday ta'limning samaradorligi o'quv–tarbiya jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarga bog'liq. Shuning uchun bo'lajak pedagoglar o'qitishning zamonaviy metod va vositalarini mukammal egallashlari lozim. Ayniqsa, bugungi kunda kasbiy faoliyatga tayyorlash muhim pedagogik muammolardan sanaladi.

Eng avvalo, shuni ta'kidlab o'tish joizki, pedagogik tadqiqotlar natijasi umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi jarayonida mehnat ta'limi va kasbiy ta'lim mazmunining uzviyligi etarli darajada ta'minlanmaganligini, takrorlanish va uzilishlar mavjudligini, mehnat va kasb-hunar ta'limi maqsadi, metodi, shakl va vositalari bir-biriga unchalik mos kelmasligi hollari kuzatilmoqda.

Bizningcha, ushbu kamchiliklar umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi jarayonida o'quvchilarga uzluksiz va uzviy kasbiy ta'lim tizimining to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi, uzluksiz va uzviy kasbiy ta'lim standartlari va dasturlarini yaratish bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvning yo'qligi, ta'lim muassasalari pedagog kadrlari, jamoat tashkilotlari hamda rahbar hodimlarining faoliyatida izchillik yo'qligi, ya'ni aksiriyat xodimlarning kasbiy malakasining yuqori emasligi, uzluksiz va uzviy kasbiy ta'lim berishning sifatini tashxis qilishning ilmiy metodik asoslari ishlab chiqilmaganligi, uning natijalarini baholashning yagona mustaqil tizimi yaratilmaganligi natijasida yuzaga keldi.

Shuning uchun, umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi jarayonida kasbiy bilimlar uzviyligini ta'minlash davr talabiga aylandi. Uzluksiz kasbiy ta'lim tizimi aniq bir maqsad, ya'ni ta'lim oluvchilarning kasb-hunarga oid bilim va tushunchalarini uzviy rivojlantirish hamda maqsadga muvofiq holda uzluksiz kasbiy ta'lim oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etish masalasini o'z ichiga oladi.

Mazkur yo'nalishdagi tadbirlarni amalga oshirish uchun umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi jarayonida kasb-hunarga oid bilim va tushunchalar uzviyligini ta'minlovchi model' ishlab chiqilishi zarur. Bu esa chuqur pedagogik tadqiqotlarni taqazo etadi.

Biz ushbu bitiruv malakaviy ishida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarida kasbga–hunarga oid ilk tushunchalarni shakllantirishning ditaktik asoslari haqida so‘z yuritdik.

Shu bo‘yicha tadqiqotning boblarida kasb-hunar kollejlarda xalq amaliy bezak san’ati uslublarini o‘rgatishni nazariy asoslari, o‘quv dasturlari, mahalliy naqsh kompozitsiyalarini tuzish va ranglash bosqichlari, topshiriq variantlari ko‘rsatib berildi. Shuning uchun amaliy bezak san’ati maktablari uslubi bo‘yicha alohida kurs mazmunini ishlab chiqish, shu kursda imkoni boricha mahalliy xalq amaliy bezak san’ati uslublari bilan chuqurroq va kengroq qamrab olish va talabalarning mustaqil ishlab, individual qobiliyatlarining ochilishiga ko‘maklashish zarurligi isbotlandi. Pedagogika, psixologiya va o‘qitish metodikasi sohasidagi etakchi olimlarning ishlarini tahlil qilib, xalq amaliy bezak san’ati bo‘yicha va unga yaqin sohalardagi mavjud adabiyotlar o‘rganilib, hamda xalq amaliy bezak san’ati kursining o‘ziga xos tomonlarini hisobga olgan holda kursga qo‘yiladigan konseptual talablar ishlab chiqildi.

Konseptual talablarga javob beradigan xalq amaliy bezak san’ati turlaridan naqqoshlik san’atining mazmuni va tuzilishi aniqlandi. Xalq amaliy bezak san’ati turlaridan naqqoshlik to‘garak mashg‘ulotlarini san’at kollejlarda tayyorlanadigan ishlab chiqarish mutaxassisining yo‘nalishini hisobga olgan holda alohida kurs sifatida, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida esa o‘quv rejasiga asosan fakultativ yoki to‘garak mashg‘ulotlari ko‘rinishida o‘quv jarayoniga kiritish zarur. Ushbu talablarni qondirish maqsadida kurs mavzulari va talabalar bajaradigan mustaqil ish topshiriqlarining ko‘p variantli (keng) qilib tayyorlanishiga zamin tayyorlandi.

O‘tkazilgan tadqiqotlarning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

1. San’at kollejlarda o‘qitilayotgan xalq amaliy san’ati turlari shuningdek, naqqoshlik san’ati fanlari darsliklar bo‘yicha qisqa bo‘lsada tahlil qilib chiqildi.
2. Xalq amaliy bezak san’ati elementlarining mavjudligi tahlil qilindi.
3. Xorazm viloyatidagi san’at kollejlarda va san’at gimnaziyyalarida xalq amaliy bezak san’ati turlaridan naqqoshlik san’atini to‘garaglarda o‘qitish zarurligi

tadbiq qilinib, talabalarning o‘qish va mustaqil hayotda, ijodda keng foydalanishi aniqlashga harakat qilindi.

4. Xalq amaliy bezak san’ati turlaridan naqqoshlik san’ati bo‘yicha o‘quv dasturi, metodik qo‘llanma, ko‘rgazmali qurollar, o‘quv jarayoniga kiritish metodikasi va korrekstiyalash materiallaridan iborat o‘quv-metodik majmua ishlab chiqishga, tajribada sinab ko‘rishga tavsiya qilindi.

5. Qo‘llanilgan tanlash metodikasi va mustaqil ish topshiriqlarining mazmuniy tuzilishi, O‘MMning tuzilish va amalga joriy qilinishi boshqa yo‘nalishdagi turdosh fanlarni takomillashtirishda muvaffaqiyatli qo‘llanilishi mumkin.

O‘tkazilgan tadqiqot zamonaviy kasb-hunar kollejlari talablari bo‘yicha talabalarga to‘la va har tomonlama ta’lim va tarbiya berishga ko‘maklashadi. Bu yo‘nalishdagi muammolar bo‘yicha keyingi tadqiqotlar umum ta’lim maktablari, san’at gimniziyalari uchun o‘quv reja, dastur hamda darsliklarni takomillashtirish yo‘nalishda bo‘lishi mumkin.

Men kelgusida ish faoliyatim davomida o‘zbek amaliy bezak san’ati turlaridan naqqoshlik san’atidan olgan bilimlarimni yanada boyitishda izlanishlarni davom qildirib naqqoshlik san’atidan tog‘arak mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirishda ilmiy asoslangan dasturlar tuzish, o‘quv metodik ko‘rgazmalar tayyorlash, tanlovlar o‘tkazish, mahalliy materiallardan foydalanish, ko‘rgazmalar tayyorlashni tashkil etish, o‘quv xonalarini zamonaviy jihozlashga harakat qilmoqchiman.

## ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: Sharq NMAK, 1997. 31-61 b.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod –O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997. 64-bet.
3. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni / Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.–T .: Sharq NMAK, 1997. 20-29-b.
4. Karimov I. A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. Toshkent, «O'zbekiston», 1992, 63-bet.
5. Азимов И.М. Ўзбекистон нақши нигорлари. Т. Ғ.Ғулом номидаги адабиёти ва санъати нашриёти. - 1987.
6. Апухтин О.К. Бадиий нақш мактаби. Т. «Ўқитувчи».- 1969.
7. Булатов С.С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. Т. «Меҳнат». -1991.
8. Булатова В.А. Ноткин И.И. Архитектурные памятники Хива. Изд. Т. «Узбекистан». - 1965.
9. Манковская А.Л, и Булатова В.А. Памятники зодчество Хорезма. Т. Изд. лит. Искусство имени Г.Гуляма. - 1978.
10. Морозова А. С. Хивинский узор. Т. Госуд. Изд. Худ. лит. Уз.Р. 1957.
11. Ноткин И.И. Тош-хаули. Изд. Т. «Узбекистан». - 1968
12. Ремпель Л.И. Архитектурный орнамент Узбекистана. Т. Гос. Изд. Хид. лит. -1961.
13. Қосимов Қ. Наққошлик. Т. «Ўқитувчи» -1990.
14. Эгамов Х. Бўёқлар билан ишлаш. Т. «Ўқитувчи» -1990.
15. Ошиқ осмон остидаги музей. Т. «Ўзбекистон» -1978.
16. Xolmatov B.Q. Naqqoshlik. – T: Iqtisod – molya, 2007.
17. Xolmatov B.Q. Kompozitsiya. – T: Iqtisod – molya, 2007.
18. G'ulomov K. M. Amaliy san'at - T: Iqtisod – molya, 2007.



